MILLIY ARMIYA – ONA YURT QALQONI, TINCHLIGIMIZ POSBONI!

"YAGONA VATAN, YAGONA XALQ BO'LIB,
YANGI HAYOT VA KELAJAK YARATAMIZ!"

VATANPARVAR



Azaldan zakovat nuriga yolchib,
Zulmatlarga irfon yog'dusin sochib,
Turib, tun-u kunning tutash yeridan,
Ne-ne sayyoralar, qit'alar ochib,
O'zbek kelayotir tarix qa'ridan!

Akif BAG'IR,
ozar shoiri

IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY,
HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

GAZETA 1992-YILNING
24-IYUNIDAN CHIQA BOSHLAGAN

WWW.MV-VATANPARVAR.UZ

2026-YIL 2-OKTABR
№40 (3206)

Xalqaro maxsus-taktik o‘quv

MAQSADLAR BIRLASHIB

Davlatlar Qurolli Kuchlarining salohiyatini belgilaydigan omillar ko‘p. Zamonaviy qurol-yarog‘ va harbiy texnika, shaxsiy tarkibning kasbiy tayyorgarligi, jangovar qobiliyat, boshqaruv samaradorligi... Ammo bugungi murakkab xavfsizlik muhitida yana bir muhim mezon borki, uning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bu xalqaro harbiy hamkorlik, tajriba almashish va qo‘shma mashg‘ulotlarda orttirilayotgan amaliy ko‘nikmalardir.





Zero har qanday armiya o‘z imkoniyatlarini faqat ichki tayyorgarlik jarayonida emas, balki turli davlatlar harbiylari bilan hamkorlikdagi mashg‘ulotlar davomida ham sinovdan o‘tkazadi. Turli yondashuvlarni o‘rganish, taktik harakatlarni muvofiqlashtirish, til va boshqaruv to‘siqlarini yengib, yagona maqsad sari harakat qilish – bularning barchasi harbiy xizmatchining kasbiy mahoratini yanada oshiradi.

O‘zbekiston harbiy xizmatchilarining xorijiy davlatlar bilan o‘tkazilayotgan qo‘shma o‘quvlari va xalqaro musobaqalardagi ishtiroki ham ana shu jarayonning uzviy qismi. Yurtimizdagi poligonlar, dala-o‘quv maydonlari, tog‘ tayyorgarligi markazlari va ularning hududiy bazalarida muntazam tashkil etilayotgan mashg‘ulotlar esa ushbu hamkorlikning amaliy poydevorini mustahkamlamoqda.

Yaqinda O‘zbekiston mezbonlik qilgan Turkiya, Ozarbayjon, Pokiston va mamlakatimiz harbiy xizmatchilari ishtirokidagi “Abadiy qardoshlik” V xalqaro maxsus-taktik o‘quvi ham ana shunday muhim tadbirlardan biri bo‘ldi.

Quruqlikdagi qo‘shinlar institutidagi tantanali ochilish marosimdan so‘ng boshlangan maxsus-taktik o‘quv qariyb o‘n kun davom etdi. Bir qarashda o‘n kun qisqa muddatdek tuyulishi mumkin. Ammo bu davr mobaynida ishtirokchilar uchun nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish, turli taktik usullarni sinovdan o‘tkazish va bir-birining tajribasini o‘rganishga qaratilgan keng qamrovli mashg‘ulotlar tashkil etildi.



O‘quvning asosiy e’tibori jangovar birodarlikni mustahkamlash, maxsus harakatlarni rejalashtirish va amalga oshirishda boshqaruv organlarining ko‘nikmalarini oshirish, zamonaviy jang sharoitida qo‘llanilayotgan taktik usullarni o‘zaro muvofiqlashtirish hamda tajriba almashishga qaratildi.

Otish, tog‘, maxsus-taktik, muhandislik, taktik-tibbiy tayyorgarlik, shuningdek uchuvchisiz uchish apparatlaridan jangovar maqsadlarda foydalanish bo‘yicha mashqlar real jangovar vaziyatlarga yaqinlashtirilgan holda tashkil etildi.

SHARTLI JANG MAYDONIDA HAQIQIY MAHORAT SINOVI

Bir necha kunlik nazariy va amaliy tayyorgarlikdan so‘ng ishtirokchilar guruhlarga bo‘linib, taktik harakatlarni amalga oshirishdi. Shartli jangovar vaziyat tobora murakkablashib bordi. Guruhlar oldiga shartli dushmanning joylashuvini aniqlash, uni chalg‘ituvchi taktik usullardan foydalangan holda zararsizlantirish va belgilangan topshiriqni qisqa vaqt ichida bajarish vazifasi qo‘yildi.

Hujum boshlanishidan avval hudud uchuvchisiz uchish apparatlari yordamida razvedka qilindi. Olingan ma’lumotlar asosida dushmanning shartli joylashuvi aniqlandi. Bu esa keyingi harakatlarni yanada aniq va muvofiqlashgan tarzda olib borish imkonini berdi.

Qo‘shma mashg‘ulotning muhim jihatlaridan biri – turli davlatlar harbiy xizmatchilarining yagona guruh sifatida harakat qila olish qobiliyati edi. Bunday jarayonda til



Kichik serjant Ixtiyorjon MAMAJONOV

KUCH BO‘LAR









II darajali serjant Ixtiyor EGAMBERDIYEV

masalasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Quvonarlisi, o‘zbek harbiy xizmatchilarining xorijiy tillarni bilishi, xususan turk, ozarbayjon va ingliz tillarida muloqot qila olishi ishtirokchilar o‘rtasida tajriba almashish va vazifalarni tushunishda qulaylik yaratdi.

Shartli aholi yashash hududi sharoitida noqonuniy qurollangan shartli guruhlarni aniqlash va zararsizlantirishga qaratilgan maxsus amaliyotlar ham yuqori sur’atda o‘tkazildi. Hududlarga desant tushirish, uchuvchisiz uchish apparatlarini zararsizlantirish, belgilangan nishonlarga aniq zarbalar berish kabi vazifalar bajarildi.

ILK BOR O‘ZBEKISTONDA

“Abadiy qardoshlik” xalqaro maxsus-taktik o‘quvlari bunga qadar Turkiya, Ozarbayjon, Qozog‘iston va Pokistonda o‘tkazilgan. Beshinchi marotaba tashkil etilgan ushbu nufuzli tadbirga O‘zbekistonning birinchi bor mezbonlik qilgani alohida ahamiyatga ega.

O‘quv davomida to‘rt davlat Mudofaa vazirliklari harbiy xizmatchilari, jangovar texnika, aviatsiya vositalari va uchuvchisiz uchish apparatlaridan foydalangan holda qo‘shma vazifalarni bajardi.

Mashg‘ulotlardan ko‘zlangan asosiy maqsad qo‘shma operatsiyalarga tayyorgarlik darajasini oshirish, bo‘linmalar o‘rtasidagi o‘zaro hamjihatlikni kuchaytirish, o‘quv-mashg‘ulot tartib va qoidalarini uyg‘unlashtirish hamda bo‘linmalarning jangovar qobiliyatini rivojlantirishdan iborat bo‘ldi.

Shuningdek, gibrid tahdidlarga qarshi harakatlanish, zamonaviy taktik usullar va maxsus operatsiyalarni tashkil etish bo‘yicha o‘zaro tajriba almashildi.

QARDOSH XALQLAR – MUSHTARAK QADRIYATLAR

Qo‘shma o‘quv faqat poligon va mashg‘ulot maydonlari bilan cheklanib qolmadi. Ishtirokchilar uchun Chirchiq shahrida keng qamrovli madaniy-ma’rifiy tadbirlar, milliy qadriyatlar ko‘rgazmalari tashkil etildi. Unda ishtirokchi davlatlarning milliy madaniyati, urf-odatlari hamda Chirchiq shahri “Hunarmand” uyushmasi ustalari tomonidan tayyorlangan milliy mahsulotlar namoyish etildi.

Shuningdek, harbiy xizmatchilar o‘rtasida turli sport musobaqalari va do‘stona uchrashuvlar o‘tkazildi. Poytaxtimizning diqqatga sazovor joylariga tashkil etilgan sayohatlar esa xorijiy mehmonlarga mamlakatimiz tarixi va bugungi taraqqiyoti bilan yaqindan tanishish imkonini berdi.

Demak, qo‘shma harbiy mashg‘ulotlar nafaqat kasbiy tajriba almashish, balki xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat va do‘stlikni mustahkamlashga xizmat qiladigan maydon ham bo‘ldi.

O‘quv mashg‘ulotlari yakunida ishtirokchi davlatlarning yuqori lavozimli ofitserlariga buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temur haykalchasi ramziy sovg‘a sifatida topshirildi.

Shuningdek, yig‘inda faol ishtirok etgan harbiy xizmatchilar ham maxsus sovg‘alar bilan taqdirlandi.

Taqdirlash marosimida mudofaa vaziri general-leytenant Shuxrat Xalmuxamedov xorijiy delegatsiyalar rahbarlari va harbiy xizmatchilarga mashg‘ulotlarning muvaffaqiyatli yakunidagi faol ishtiroki uchun minnatdorlik bildirdi.

“RUHIMIZ VA MAQSADIMIZ BIR”

O‘quv boshlanishidan avval turkiyalik podpolkovnik Chetin Toraman “Chirchiq” poligonida yaratilgan shart-sharoitlar ishtirokchi davlatlar harbiy xizmatchilarining o‘n kunlik mashg‘ulotlar davomida o‘z kasbiy mahoratini yanada oshirishlariga xizmat qilishini ta’kidlagan edi. U, shuningdek turkiy davlatlar o‘rtasidagi birdamlik va hamjihatlik O‘zbekiston zaminida yana bir bor namoyon bo‘lishiga ishonch bildirgan.

Ozarbayjonlik praporshik Ravshen Amirlining fikrlari esa mashg‘ulotning mazmun-mohiyatini qisqa va ta’sirchan ifodalaydi:

– Turli davlatlardan bo‘lsak ham, bizning ruhimiz va maqsadimiz birlashdi. Qardosh xalqlarning harbiylari bilan bu yerda zamonaviy jang olib borish usullarini o‘rgandik. Shartli maxsus jangovar vaziyatlarda birga ishladik, hamkorlikda hujumlar tashkil qildik. O‘ylaymanki, bunday mashg‘ulotlar Qurolli Kuchlarimizning, qo‘shinlarimizning rivojlanishi va birgalikdagi professional o‘sishimiz uchun juda muhim.

Darhaqiqat, poligondagi har bir harakat, har bir mashq va har bir muloqotning zamirida bitta maqsad mujassam edi – hamjihatlikni mustahkamlash, o‘zaro ishonchni oshirish va zamonaviy jangovar vazifalarni hamkorlikda bajarish mahoratini yuksaltirish. Zero zamonaviy jang maydonida kuch faqat texnika yoki qurol bilan o‘lchanmaydi. Inson omili, aniq qaror, o‘zaro ishonch va bir maqsad yo‘lida harakat qila olish qobiliyati ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. “Abadiy qardoshlik” V xalqaro maxsus-taktik o‘quvi ana shu haqiqatni yana bir bor namoyon etdi.

Asror RO‘ZIBOYEV,
“Vatanparvar”

Tanlov

MARDLIK MAYDONIDA

Dunyoda sodir bo‘layotgan shiddatli va murakkab geosiyosiy jarayonlar, harbiy mojarolarning soniyalar ichida bir shakldan boshqasiga o‘tib turishi milliy armiyamizdan jangovar tayyorgarlik tadbirlarini takomillashtirib borishni, harbiy xizmatchilarning yuqori tezlik va mutlaq psixologik barqarorligini talab qilmoqda. Shu ma’noda O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida harbiy xizmatchilarning kasbiy va jismoniy malakasini tubdan oshirish borasida bir qator amaliy tadbirlar yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bular jangovar shaylikni yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Harbiy xizmatchilar o‘rtasida katta qiziqish uyg‘otgan va har yili o‘nlab jangchilar qatnashadigan “Dovyurak jangchi” farqlovchi nishoni uchun intensiv sinovlarni buning yaqqol ifodasi sifatida ko‘rsatish mumkin. Joriy yilda ham mazkur intensiv sinovlar Markaziy harbiy okrugning “Forish” tog‘ poligonida keskin bahslar va murosasiz kurashlar bilan o‘tdi.

Sinov jarayonlarining dastlabki bosqichidayoq ishtirokchilarning jismoniy kuchi, chaqqonligi va ruhiy bardoshi jiddiy imtihondan o‘tkazildi. Murakkab kuch mashqlarini bajarish, yagona to‘siqlar yo‘lagidan o‘tish va umumiy nazorat mashqlarini ado etish tashqaridan qaraganda oddiy tuyulishi mumkin. Ammo bu harakatlar har bir jangchining ruhiy va jismoniy imkoniyatini sinaydigan mashaqqatli mashq turlaridan biridir. Muvaffaqiyatning garovi yuksak kasbiy mahorat, temirdek intizomga bog‘liqligini chuqur anglagan va yurakdan his qilgan harbiylar har bir soniyani qadrlab, ushbu shartlarni o‘ta hushyorlik va qat’iyat bilan bajardi.

Navbatdagi shart AK-74 avtomati hamda 9 mm.li PM to‘pponchasidan nishonga aniq o‘q uzish, shuningdek pichoq uloqtirish amaliyotlarida jangchilarning ruhiy barqarorligi, sovuqqonligi va nishonga olish mahorati baholandi. Bu mashg‘ulotda sinov qatnashchilarining yuqori kasbiy tayyorgarligi va aniq hisob-kitobi ko‘zga yaqqol tashlandi. Deyarli barcha ishtirokchilar yuqori natijalarni ko‘rsatdi. Bu milliy armiyamizda

“DOVYURAK JANGCHI”LAR

o‘qotar qurollar bilan ishlash ko‘nikmasi muntazam ravishda ortib borayotganidan dalolat beradi, albatta.

“Forish” tog‘ poligonining mahobatli qoyalari, past-baland adirliklari va olis ufqqa tutashgan bepoyon qirlari harbiy xizmatchilar uchun ham sinov, ham chiniqish maydoniga aylandi. Bu murakkab relyef sharoiti bir tomondan, jangchilarning irodasi, chidamliligi va ruhiy barqarorligini sinovdan o‘tkazsa, ikkinchi tomondan, shartli dushman uchun har qadamda kutilmagan pistirmalar uyushtirishga g‘oyat qulay imkoniyat yaratadi.

“Dovyurak jangchi” farqlovchi nishoni uchun intensiv sinovlarning eng mashaqqatli bosqichi – qat’iy tartibda 30 kilometrga piyoda marsh yurish mashqida ana shu tabiiy sinovlar va to‘siqlar ko‘zga yaqqol tashlandi. Haqiqatan ham maydondagi bunday og‘ir sharoitlar har bir harbiydan nafaqat jismoniy kuch, balki chinakam po‘lat iroda va sinmas matonatni talab etdi.

Mudofaa vazirligi Jangovar tayyorgarlik bosh boshqarmasi mas’ul ofitserlari hamda harbiy okruglar mutaxassislari tomonidan bosqichma-bosqich va mutlaqo xolisona baholab borilgan sinovlar besh kun davom etdi. Yakuniy natijalarga ko‘ra, barcha shartlarni yuqori ko‘rsatkichlar bilan bajargan chinakam da’vogarlar “Dovyurak jangchi” degan mag‘rur nomga sazovor bo‘ldi.

G‘oliblarga “Dovyurak jangchi” ko‘krak nishoni, diplom va faxriy yorliqlar, harbiy unvon va lavozim maoshining bir baravari miqdoridagi biryo‘la to‘lanadigan pul mukofoti topshirildi.

Furqat ERGASHEV,
“Vatanparvar”



1-oktabr – O‘qituvchi va murabbiylar kuni

Vatan himoyasidek sharafli va mas’uliyatli vazifaga munosib avlodni tarbiyalashda o‘qituvchi va murabbiylarning o‘rni beqiyos. Zero harbiy xizmatchining kasbiy mahorati, dunyoqarashi va xizmatga bo‘lgan munosabati, avvalo, ta’lim va tarbiya jarayonida shakllanadi. Ustozning bergan sabog‘i esa yillar davomida shogirdining faoliyati, qarorlari va hayot yo‘lida o‘z aksini topadi.



KELAJAK BUNYODKORLARINI TARBIYALAYOTGAN USTOZLAR



Harbiy ta’lim maskanlarida faoliyat yuritayotgan o‘qituvchi va murabbiylar yosh avlodga zamonaviy harbiy bilimlarni o‘rgatish bilan birga ularda qat’iyat, intizom, jamoaviylik, fidoyilik va Vatanga sadoqat kabi muhim fazilatlarni shakllantiradi. Ularning mashaqqatli mehnati natijasida bilim va tajribani puxta egallagan, har qanday vaziyatda o‘z burchini sharaf bilan ado etishga tayyor harbiy kadrlar voyaga yetmoqda.

Mudofaa vazirligi markaziy apparatida 1-oktabr – O‘qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan bayram tadbiri bo‘lib o‘tdi. Unda Mudofaa vazirligi rahbariyati, keng jamoatchilik vakillari, harbiy xizmatchilar, Qurolli Kuchlar ishchi-xizmatchilari va faxriylar ishtirok etdi.

Dastlab mudofaa vazirining O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan bayram tabrigi o‘qib eshittirildi. Shundan so‘ng mudofaa vazirining tegishli buyrug‘iga asosan, tizimda samarali mehnat qilib, kursantlarga kerakli bilim va ko‘nikmalarini berib kelayotgan professor-o‘qituvchilarga ko‘krak nishonlar, esdalik sovg‘alar tantanali ravishda topshirildi.

“Yosh avlod tarbiyasi – butun jamiyatning muqaddas burchi, vazifasi” degan ezgu g‘oya har birimizning yuragimizda aks sado berib, kundalik hayotimiz mezoni, mazmuniga aylanishi shart.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2026-yil 30-sentabrdagi o‘qituvch va murabbiylarga yo‘llagan tabrigidan.







Tadbirda so‘z olganlar sana munosabati bilan ustoz va murabbiylarni tabriklarkan, jismoniy, jangovar, psixologik va ma’naviy yo‘nalishdagi xalqaro musobaqalarda yetakchilikni qo‘ldan boy bermay kelayotgan harbiy xizmatchilar yutuqlarida ustoz va murabbiylarning ko‘p yillik tajribasi, zahmatli mehnati, fidoyiligi katta ekanini ta’kidladi.

Tadbirning badiiy qismida Qurolli Kuchlar Markaziy ashula va raqs ansambli ijodkorlari tomonidan ustoz va murabbiylarni mashaqqatli va sharafli faoliyatini tarannum etuvchi kuy-qo‘shiqlar ijro etildi. Taniqli san’atkorlarning chiqishlari esa bayram tadbiriga yanada ko‘tarinki ruh bag‘ishladi.

Mansurbek JABOROV,
“Vatanparvar”

Millat fidoyilari

HAMMA BIR SORIG‘A YETSIN



O‘lim bor haqiqat. Erta yoki kech barchamiz bu foniy dunyo bilan xayrlashamiz. Inson qancha yashagani emas, balki unga berilgan umrni qanday yashagani, ortidan qanday iz qoldirgani muhim ekanini anglaganimga ham ko‘p bo‘lmadi. Zero hayotning qadri uning davomiyligi bilan emas, mazmuni bilan o‘lchanar ekan. Aslida esa har bir qadamimiz ko‘zga ko‘rinmas xavf-xatarlar qurshovida. Biz esa bu xavflarning aksarini payqamay, kundalik tashvishlarimiz bilan yashayveramiz. Masalan, avtobusda ketayotganimizda haydovchi boshqarayotgan mashinadagi birgina mexanizmning bir lahzada ishdan chiqishi qanchadan qancha inson taqdirini birzumda o‘zgartirib yuborishi mumkin. Birgina nosozlik, birgina omadsiz lahza... va men qatori yuzlab odamlar bu dunyo bilan vidolashishi hech gap emas. Baland binolarning umrboqiy ekaniga ham hech kim kafolat bermaydi, lahzada ustingizga bostirib kelishi mumkin. Bu kabi misollar esa minglab, millionlab. Eng qizig‘i, inson bu haqiqatlarni bilsa-da, ko‘pincha ular haqda o‘ylamay yashaydi. Ertangi kunni rejalaydi, uzoq kelajakka mo‘ljal qiladi, hali oldinda juda ko‘p vaqt bordek his etadi. Go‘yo hayot bizga berilgan emas, balki biznikidek. Go‘yo vaqtning oxiri yo‘qdek...

“Hamma bir sorig‘a yetsin”, derdi Xudo rahmatli bobom. Bolaligimda bu gapning zamirida qanday ma‘no borligini anglamasdim. Oddiy bir ibora, oddiy bir tilakdek qabul qilardim. Bugun esa o‘sha so‘zlarning ortida qanchalar katta hayotiy haqiqat borligini tushunyapman. Gapni uzoqdan olib keladigan odatim yo‘q. Ammo bugun negadir shu gaplarni aytgim keldi.

Anchadan beri “Millat fidoyilari” haqida maqola, esse, hikoyalar qoralayman. Yaqin qarindoshlarimdek bo‘lib ketgan o‘sha qahramon yigitlarning oila a’zolarini gohida tushlarimda ham ko‘raman: keng jang maydoni, dushman o‘qidan yaralangan Elomon Otajonov radiostansiya orqali dushman qo‘nalgohi-yu, o‘ziga yaqinlashib kelayotgan dushman askarining qay ahvolda ekanidan xabar berayotgan bo‘ladi. Lahzada jang maydonining boshqa tomonida paydo bo‘lib qolaman. Dushman o‘qiga mardona ko‘krak tutayotgan Sayyor Sadinov paydo bo‘ladi. O‘q yomg‘iri qancha boshi uzra yog‘ilmasin, qilt etmaydi, ko‘ziga yosh olmaydi. U boshini mardona tutgancha, g‘anim o‘qiga ko‘ksini qalqon qilgancha turaveradi, o‘lmaydi. Yana Ulug‘bek Barnoyev, Otabek Muhammadiyev, Ma’ruf Rajabovlar Sayyorning yonida o‘tib bo‘lmas qalqon vazifasini bajaradi...

Uyg‘onib ketaman, ko‘z oldimda o‘q yomg‘iridan jarohat olmayotgan, o‘lmayotgan qahramonlar jonlanadi. Ko‘zimdan uyqu qochadi, abadiylik shu bo‘lsa kerak. Tushni ta’bir qilishga tushaman: otilayotgan o‘qlarni yurtning tinchligiga raxna solayotgan g‘alamislar, desak, bir qator saf tortib turgan qahramon yigitlar Vatan chegarasidir. Jarohat olmayotgan askarlar esa armiyamizning kuchli va bardoshli ekanidan darak beradi. Qahramon yigitlarning o‘qlardan o‘lmayotganiga kelsak, ular xalq va Vatan yuragida mangu yashashini, tani tuproq bo‘lsa ham, yodi biz bilan abadiy ekanidan ishoradek go‘yo.

Tonggacha mijja qoqmayman, ishga otlanaman. Avtobusda ham xayolimda tushimning alg‘ov-dalg‘ov lahzalarini eslayman. Ishxonaga yetib kelgach, shkafda turgan “Millat fidoyilari” kitobini qo‘limga olaman-da, varaqlay boshlayman. Tunda tushimga kirgan yigitlarning xuddi o‘zi, oradan yigirma olti yil o‘tgan bo‘lsa ham, o‘zgarmagan. Ular hanuz Vatan sarhadlarini yomon ko‘zlardan mardona asrab-avaylab turibdi. Kitobni varaqlar ekanman, sahifalar ichida menga tanish bo‘lmagan bir qiyofa zohir bo‘ladi. Avval yozmaganman bu yigit haqida. Ismini eshitganman, lekin na oila a’zolari bilan, na hayoti bilan tanish emasman. Tarjimayi holi, qahramonliklariga sekin quloq tutamiz:

Katta leytenant Asilbek Rustamovich Mirzayev 1976-yil 30-mart kuni Andijon viloyatining Baliqchi tumanidagi Chinobod shaharchasida tavallud topgan. 1983-yilda Chinobod shaharchasidagi 39-umumta’lim maktabiga o‘qishga borib, 1993-yilda uni muvaffaqiyatli tamomladi.

Maktabni bitirgach, bir yil davomida oliy harbiy bilim yurtiga kirish uchun tayyorgarlik ko‘rdi. Shu vaqt oralig‘ida korxonalardan birida ishchi bo‘lib mehnat qildi. Biroq uning qalbidagi orzu – harbiy bo‘lish, Vatan himoyasiga o‘z hissasini qo‘shish istagi tobora kuchayib borardi. Nihoyat, 1994-yilda u o‘z taqdirini harbiy hayot bilan bog‘lashga qaror qilib, hujjatlarini Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik-muhandislik bilim yurtiga topshirdi.

Uning intilishlari va qobiliyati munosib baholandi. Qabul komissiyasi qaroriga ko‘ra, Asilbek Mirzayev bilim yurtining Havo-desant qo‘shinlari fakultetiga o‘qishga qabul qilindi.

Kursdoshlari va safdoshlari uni doim do‘stlariga yordamga oshiqadigan, jamoani birlashtira oladigan, samimiy va sadoqatli inson sifatida eslaydi. Asilbekka xos bo‘lgan bu fazilatlar uning nafaqat shaxsiy hayotida, balki harbiy xizmat faoliyatida ham yaqqol namoyon bo‘ldi.

U har qanday vaziyatda o‘z manfaatlaridan ko‘ra, jamoa va shaxsiy tarkib manfaatlarini ustun qo‘yar, zimmasidagi vazifalarni sidqidildan bajarishga intilardi.



O‘qish va jamoat ishlaridagi faolligi, harbiy tayyorgarligi hamda shaxsiy fazilatlari tufayli Asilbek Mirzayev 1997-yil 12-maydan 6-iyunga qadar Norvegiya Qirolligida NATOning “Tinchlik yo‘lida hamkorlik” dasturi doirasida o‘tkazilgan “Kooperativ Banners” harbiy o‘quv-mashg‘ulotlarida ishtirok etish sharafiga muyassar bo‘ldi.

1998-yilda bilim yurtini tamomlagan yosh ofitser O‘zbekiston Respublikasi mudofaa vazirining buyrug‘i bilan 52788-harbiy qism parashyut-desant vzvodi komandiri lavozimiga tayinlandi.

U xizmatining ilk kunlaridanoq o‘zining ishbilarmonligi, tashabbuskorligi va uddaburonligi bilan safdoshlari e’tiborini qozondi. Qisqa vaqt ichida xizmatdagi mahorati va tashkilotchilik qobiliyatini namoyon etib, rota komandiri lavozimiga ko‘tarildi. 1999-yili avgust oyida Farg‘ona viloyatining So‘x tumaniga bostirib kirgan jangarilarga qarshi o‘tkazilgan jangovar operatsiyada o‘z otryadi bilan faol ishtirok etdi. Murakkab vaziyatlarda qat’iyat va jasorat ko‘rsatib, harbiy burchiga sodiqligini amalda namoyon qildi.

2000-yilning aprel oyidan boshlab Maxsus operatsiyalar kuchlari batalyoni ruhiy ta’sir o‘tkazish guruhi ofitseri lavozimida xizmat qila boshladi. Shu yilning 16-sentabr kuni batalyon jangchilariga Surxondaryo viloyatining Uzun tumani, Kishtut qishlog‘idagi Hamidarcha darasiga bostirib kirgan qurolli jangarilarni yo‘q qilish bo‘yicha jangovar vazifa yuklatildi.

Ana shu og‘ir va mas’uliyatli jangovar harakatlar davomida katta leytenant Asilbek Mirzayev Vatan oldidagi muqaddas burchini ado etib, mamlakatimiz mustaqilligi va xalqimiz osoyishtaligini asrash yo‘lida jonini fido qildi.

Uning umri qisqa bo‘ldi, ammo Vatanga sadoqati, harbiy qasamyodiga vafosi va ko‘rsatgan jasorati zamonlar osha yashaydi. Zero Vatan himoyasi yo‘lida fido bo‘lgan insonlarning nomi taqvimdagi sanalar bilan emas, xalq qalbidagi abadiy xotira bilan o‘lchanadi. Kitobni yopaman. Ammo Asilbek Mirzayevning qiyofasi ko‘z oldimdan ketmaydi. Bir necha soat avval men uchun begona bo‘lgan bir insonni ming yillardan beri tanigandekman. Uning hayot yo‘li, harbiy qasamyodga sadoqati, Vatan yo‘lida ko‘rsatgan jasorati haqida o‘qir ekanman, yana o‘sha tushim yodimga tushadi. O‘sha tushdagi mardona saf, o‘q yomg‘iriga qaramay, tik turgan yigitlar...

Balki, insonning haqiqiy umri ham shundan boshlanar – uning ortidan qolgan abadiy xotira bilan. Asilbek Mirzayevning ham jismi tuproqqa aylanganiga yillar bo‘ldi. Ammo uning nomi, Vatan oldidagi burchi va fidoyiligi bugun ham yashayapti. U haqda yozilgan har bir satr, aytilgan har bir so‘z, uni eslagan har bir inson xotirani yana bir bor uyg‘otadi.

Shunda bobomning “Hamma bir sorig‘a yetsin”, degan gaplari yana qulog‘imda jaranglaydi. Ha, insonning bu dunyodagi manzili bir kun tugaydi. Ammo qanday yashagani, qanday iz qoldirgani qoladi. Ba’zilar umrini yillar bilan o‘lchaydi, ba’zilar esa qilgan ishlari, Vatanga sadoqati va xalq xotirasida qolgan aziz nomi bilan yashaydi.

Muhammadali G‘AFFOROV,
“Vatanparvar”

Iftixor



VATANPARVARLIK
QACHON IJTIMOIY KUCHGA AYLANADI?

Bugungi globallashuv, raqamli kommunikatsiyalar, axborot oqimining keskin tezlashuvi va turli yot madaniy ta’sirlar kuchaygan bir sharoitda yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish masalasi oddiy tarbiyaviy vazifa doirasidan chiqib, jamiyatning barqaror taraqqiyotini ta’minlovchi muhim ijtimoiy-ma’naviy masalaga aylanmoqda. Chunki Vatanning ertangi kuni, avvalo, uning taqdiriga befarq bo‘lmagan, o‘z hayotini mamlakat taraqqiyoti bilan bog‘lay oladigan, milliy manfaatlarni anglaydigan hamda jamiyat oldidagi mas’uliyatini his etadigan yosh avlodga bog‘liq.

Shu sababli O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda “Uzluksiz ta’lim tizimida yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash samaradorligini oshirish dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorlari o‘sib kelayotgan yosh avlodni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, uzluksiz ta’lim tizimida yagona g‘oyaviy tarbiyani shakllantirish, yoshlarning intellektual salohiyati, ong-u tafakkuri va dunyoqarashini kengaytirish, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat fazilatlarini rivojlantirish, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga doir ishlar samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish, mazkur yo‘nalishda davlat va nodavlat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari faolligini yanada oshirishga doir muhim hujjatlarga aylandi.

VATANPARVARLIK HISSIYOTDAN MAS’ULIYATGA O‘TISHDIR

Bugungi har bir yosh Vatanni sevish bilan birga uning taraqqiyot qonuniyatlarini, oldida turgan vazifalarni, jamiyatdagi o‘zgarishlarni va fuqaro sifatidagi o‘rnini ham anglashi lozim. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, vatanparvarlikni shartli ravishda besh bosqichli jarayon sifatida ifodalash mumkin: Vatanni sevish, avvalo, Vatanni anglash, Vatan oldidagi mas’uliyatni his qilish, jamiyat hayotida faol ishtirok etishdan Vatan taraqqiyotiga shaxsiy hissa qo‘shishga o‘tishdir. Masalaga bunday yondashuv ham ushbu mantiqiy zanjir vatanparvarlikning faol fuqarolikka o‘sib borish trayektoriyasi sifatini anglatadi.

VATANPARVARLIKNING VERTIKAL TIZIMI

Insonda Vatan tushunchasi bir kunda paydo bo‘lmaydi, balki u oiladagi tarbiyadan boshlanadi, bolalik tasavvurlarida shakllanadi, maktabda tarixiy va ma’naviy mazmun bilan boyiydi, talaba va yosh mutaxassis davrida esa fuqarolik mas’uliyatiga aylanadi. “Vatanga sadoqat va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning vertikal tizimi” tushunchasi yangi tarbiyaviy yondashuvning muhim jihatlaridan biridir. Uni shartli ravishda quyidagi ijtimoiy zanjir orqali tasavvur qilish mumkin: oila → maktabgacha ta’lim → maktab → professional ta’lim → oliy ta’lim → mahalla → mehnat jamoasi → fuqarolik jamiyati → davlat va jamiyat hayotida faol ishtirok. Qarorda ta’kidlanganidek, “vertikal” tushunchasi, eng avvalo, tarbiya mazmunining inson yoshi, hayotiy tajribasi va ijtimoiy maqomiga qarab bosqichma-bosqich murakkablashib borishini anglatadi.

Masalan, maktabgacha yoshda bolaga Vatan, ona tili, ota-ona, mahalla, milliy bayram, tabiat va davlat ramzlari kabi sodda, lekin hissiy jihatdan ta’sirchan obrazlar orqali anglatilsa, maktab yoshida esa bu tasavvurlar tarix, buyuk ajdodlar merosi, milliy qadriyatlar, fuqarolik burchi va mas’uliyati bilan boyiydi. Talabalik davriga kelganda Vatanga muhabbat faol pozitsiyaga aylanishi, ya’ni yosh jamoat ishlarida qatnashishi, ijtimoiy tashabbus ko‘rsatishi, muammoga befarq bo‘lmasligi va mamlakat rivojiga shaxsiy hissa qo‘shishga intilishi lozim.

VATANPARVARLIK TARBIYASINING UCH BOSQICHI

Yuqoridagi dasturda vatanparvarlik va milliy tarbiya jarayoni yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uch asosiy bosqichga ajratilgan.

Birinchi bosqich sifatida 3–6 yoshli bolalar davrida milliy o‘zlik tuyg‘usining dastlabki asoslari, atrof-muhitga munosabat, o‘z xatti-harakatini boshqarish va o‘zini namoyon qilish ko‘nikmalarini shakllantirish nazarda tutilgan.

Ikkinchi bosqich bo‘lgan 7–18 yoshli o‘quvchilarda buyuk ajdodlarning ma’naviy merosi, mustaqil fikrlash, o‘ziga ishonch, sog‘lom dunyoqarash, bag‘rikenglik, burch va mas’uliyat kabi fazilatlarni rivojlantirish muhim vazifa sifatida belgilangan.

Uchinchi bosqich sifatida 16–22 yoshdagi o‘rta maxsus, kasbiy va oliy ta’limdagi yoshlar qamrab olinib, bu bosqichda milliy qadriyatlarga hurmat, Vatanni himoya qilishga tayyorlik, fidoyilik va O‘zbekistonning taraqqiyoti hamda nufuziga hissa qo‘sha oladigan faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish nazarda tutilgan.

“KELAJAK SOATI” – VATANPARVARLIK TARBIYASINING MUNTAZAM MAYDONI

Dasturda ta’lim tashkilotlarida “Kelajak soati” mashg‘ulotlarini tashkil etishga alohida ahamiyat berilgan bo‘lib, unda yoshlarga taqdim etiladigan materiallarda qayd etilishicha, mashg‘ulotlar uchun maxsus ssenariylar, matnli, audio va videokontentlar tayyorlanishi, ular elektron platformaga joylashtirilishi, darslarni olib boruvchi pedagoglar uchun maqsadli malaka oshirish kurslari tashkil qilinishi ko‘zda tutilgan.

Bu tashabbusning ta’sirchanligi, avvalo, uning mazmuniga bog‘liq bo‘lib, agar “Kelajak soati” faqat bir tomonlama ma’ruza, shior yoki tayyor fikrlarni takrorlash bilan cheklansa, yoshning tafakkuriga chuqur ta’sir ko‘rsatishi qiyin. Aksincha, u muloqot, bahs, hayotiy keyslar, ijtimoiy muammolar tahlili, tarixiy misollar va yoshlarning shaxsiy tashabbuslarini muhokama qilish maydoniga aylansa, tarbiyaviy samarasi yuqori bo‘lishi mumkin. Bu mashg‘ulotlarda yoshga: “Sen Vatanni sevasanmi?” degan savolni berish bilan cheklanib qolmasdan, “Vatan ravnaqi uchun sen nima qila olasan?”, “O‘z mahallangdagi qanday muammoni hal qilishga hissa qo‘sha olasan?”, “Kasbing orqali mamlakat taraqqiyotiga qanday xizmat qilmoqchisan?”, “Fuqarolik mas’uliyati sen uchun nimani anglatadi?” kabi savollar qo‘yilishi maqsadga muvofiq.

VATANPARVARLIK VA TARIXIY XOTIRA

Milliy tarix, buyuk ajdodlar merosi va davlatchilik an’analari vatanparvarlik tarbiyasining muhim ma’naviy ustunlaridan hisoblanadi. Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi tarixiy shaxslar merosini yoshlar o‘rtasida keng targ‘ib etish vatanparvarlikni shakllantirishning vazifalaridan biridir. Ammo tarixiy merosdan foydalanishda uni mas’uliyat manbai sifatida talqin qilish muhim. “Biz buyuk ajdodlar avlodimiz” degan fikrning o‘zi yetarli emas. Uning mantiqiy davomi: “Shunday ekan, biz ham ilm, mehnat, madaniyat, jasorat va bunyodkorlikda munosib avlod bo‘lishimiz kerak”, degan xulosa bilan yakunlanishi lozim.

VATANPARVARLIK VA FAOL FUQAROLIK

Faol fuqarolik pozitsiyasiga ega fuqaro jamiyatda bo‘layotgan jarayonlarga befarq qaramaydi, u faqat muammoni ko‘rsatmaydi, balki yechim izlashga harakat qiladi. Bugungi yosh avlod hayotidagi eng og‘riqli muammolardan biri ham aslida shu, ularda befarqlik tuyg‘usi tobora chuqur ildiz otib borayotganga o‘xshaydi. Agar har bir yosh o‘z imkoniyati doirasida ijtimoiy muloqotda ishtirok etsa, atrofidagi insonlarga yordam bersa, davlat va jamiyat mulkiga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lsa, qonunlarga hurmat bilan qarasa hamda kasbiy vazifasini vijdonan bajarsa, bundan ortiq vatanparvarlik bo‘lmaydi.

Vatanparvarlik tushunchasining mazmuni juda keng va ko‘p qirrali bo‘lib, o‘quvchining yaxshi o‘qishi – kelajakka sarmoya, talabaning zamonaviy bilim va texnologiyalarni egallashi – mamlakat raqobatbardoshligiga hissa, yosh tadbirkorning yangi ish o‘rni

yaratishi – jamiyat farovonligiga xizmat ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Olimning tadqiqoti – milliy intellektual salohiyatni oshirishga olib borsa, sportchining yutug‘i – mamlakat nufuzini oshirishga hissa qo‘shadi va o‘qituvchining vijdonli mehnati esa kelajak avlodni tarbiyalash bilan vatanparvarlikni aks ettiradi.

OILA – VATANPARVARLIKNING ILK MAKTABI

Inson Vatan tushunchasini birinchi marta kitobdan emas, oilada anglaydi. Ona tili, ota-onaga hurmat, qarindosh-urug‘chilik, mahalla, milliy urf-odatlar va ona yurtga mehr kabi tuyg‘ular bolalik muhitida shakllanadi. Agar oilada mamlakat, jamiyat va umumiy qadriyatlarga nisbatan mas’uliyatli munosabat bo‘lsa, bola ham bu munosabatni o‘zlashtiradi. Ota-onaning halol mehnati, jamoat mulkiga ehtiyotkorligi, qonunlarga rioya qilishi, atrofdagilarga munosabati bola uchun eng kuchli tarbiyaviy namunadir.

MAHALLA – FUQAROLIK MAS’ULIYATI MAYDONI

Mahalla har bir yosh uchun jamiyatning eng yaqin ijtimoiy makoni bo‘lib, u mamlakat hayotida ishtirok etishni, avvalo, o‘z mahallasida his etadi. Keksalar holidan xabar olish, obodonlashtirish ishlarida ishtirok etish, ehtiyojmandlarga ko‘maklashish, ekologik tashabbuslarga qo‘shilish, yoshlar bilan madaniy va sport tadbirlarini tashkil qilish – fuqarolik mas’uliyatining eng oddiy, lekin ta’sirchan shakllaridir. Shu sababli materiallarda “oila – mahalla – ta’lim tashkiloti” hamkorligiga alohida e’tibor berilgan. Madaniyat, adabiyot va san’at namoyandalarini ta’lim jarayoniga jalb etish, kitobxonlik kechalari va madaniy uchrashuvlarni tashkil qilish ham ana shu hamkorlikning amaliy ko‘rinishi sifatida ko‘rsatilgan.

HARBIY-VATANPARVARLIK - JASORAT VA BURCH MAKTABI

Vatanparvarlikning muhim yo‘nalishlaridan biri harbiy-vatanparvarlik tarbiyasidir. Biroq uni faqat harbiy kasbga qiziqtirish deb tushunish bir tomonlama yondashuv bo‘lar edi. Harbiy-vatanparvarlik yoshlarda intizom, iroda, jasorat, jamoaviylik, burch, mas’uliyat va Vatan xavfsizligiga daxldorlik tuyg‘usini shakllantirishi lozim. Shuning uchun vatanparvarlikni shakllantirishga qaratilgan davlat dasturlarida “Jasorat maktablari”, “Jasorat uchqunlari” harbiy-vatanparvarlik musobaqalari, “Vatan tayanchi” harakati forumi, talaba-qizlar o‘rtasida “To‘maris izdoshlari” va talaba-yigitlar o‘rtasida “Amir Temur vorislari” kabi tashabbuslar nazarda tutilgan. Bunday loyihalarning eng katta tarbiyaviy qimmati yoshga “qahramonlik” tushunchasini faqat tarixiy hodisa sifatida emas, kundalik hayotdagi mas’uliyat, iroda va fidoyilik orqali ham anglatish imkonini berishidadir.

ZAMONAVIY QAHRAMON KIM?

Ilgari yoshlar qahramonni ko‘proq tarixiy shaxs, sarkarda yoki adabiy obraz sifatida tasavvur qilgan bo‘lsa, bugun zamonaviy jamiyatda qahramonlik tushunchasining mazmuni kengaymoqda. Yuksak natijaga erishgan olim, yurt ravnaqi uchun ixtiro yaratgan muhandis, bemor hayotini saqlab qolgan shifokor, olis hududda fidoyilik bilan dars berayotgan o‘qituvchi, xalqaro maydonda O‘zbekiston sharafini munosib himoya qilgan sportchi, tabiatni asrash tashabbusini boshlagan yosh – bular ham zamonaviy qahramonlikning ifodasi bo‘lishi mumkin. Yosh o‘z oldida “Men kimga o‘xshashni xohlayman?” degan savolga javob topishi muhim.

RAQAMLI MUHIT VA VATANPARVARLIK TARBIYASI

Tarbiya jarayonini ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalardan tashqarida tasavvur qilish mumkin emas. Raqamli muhit yosh uchun katta imkoniyatlar yaratadi: u dunyo tajribasi bilan tanishadi, bilim oladi, chet tillarni o‘rganadi, professional aloqalar o‘rnatadi. Shu bilan birga, axborot xurujlari, yolg‘on ma’lumotlar, madaniy stereotiplar va manipulyativ kontent ta’siri xavfi ham mavjud. Shu sababli vatanparvarlik tarbiyasi raqamli savodxonlik va tanqidiy fikrlash bilan uyg‘un bo‘lishi kerak. Yoshga qaysi axborotni qabul qilishni aytishdan ko‘ra, axborotni qanday tekshirish, manbalarni qanday solishtirish, manipulyatsiyani qanday anglash va mustaqil xulosa chiqarishni o‘rgatish samaraliroqdir.

VATANPARVARLIK VA KASBIY MAS’ULIYAT

Vatanni sevishning eng amaliy ifodalaridan biri o‘z kasbini puxta egallashdir. Zamonaviy dunyoda mamlakatning kuch-qudrati faqat tabiiy resurslar yoki hudud bilan emas, inson kapitali, bilim, innovatsiya, ta’lim sifati va malakali kadrlar bilan ham belgilanadi. Shu bois yosh mutaxassisning kasbga jiddiy munosabati ham vatanparvarlikning bir ko‘rinishi sifatida qaralishi mumkin. O‘z ishini sifatli bajaradigan muhandis, adolatli huquqshunos, bilimli o‘qituvchi, malakali shifokor, vijdonli davlat xizmatchisi, samarali fermer, zamonaviy dasturchi – har biri o‘z sohasida Vatan taraqqiyotiga xizmat qiladi. Shuning uchun yoshlarga “Vatanga xizmat qil!” degan umumiy chaqiriq bilan birga “O‘z kasbingda eng yaxshi mutaxassis bo‘l!” degan amaliy talab ham qo‘yilishi kerak.

VATANPARVARLIK VA IJTIMOIY TASHABBUS

Faol yosh – muammoni ko‘radigan, ammo faqat tanqid qilish bilan cheklanib qolmaydigan yosh. U taklif qiladi, jamoa tuzadi, loyiha ishlab chiqadi, boshqalarni ham jalb etadi. Oddiygina misol sifatida mahallada chiqindilarni saralash, kitob almashish burchagi tashkil qilish, imkoniyati cheklangan yoshlarga ko‘mak berish, keksa avlod xotiralarini raqamlashtirish, yoshlar uchun bepul ta’lim klubi ochish, tarixiy obyektlarni asrash bo‘yicha jamoat aksiyalarini o‘tkazish kabi loyihalar ham zamonaviy vatanparvarlikning hayotiy namunalaridir.

VATANPARVARLIKNI QANDAY BAHOLAYMIZ?

Tarbiya sohasidagi eng murakkab masalalardan biri natijani baholashdir. Vatanparvarlik tuyg‘usini oddiy test yoki raqam bilan to‘liq o‘lchash qiyin, ammo uning muayyan ijtimoiy ko‘rsatkichlarini kuzatish mumkin. Nazarimda, farzandlarimizning jamoat ishlarida ishtirok etishi, ko‘ngillilik faoliyati, kitobxonlik darajasi, tarix va madaniyatga qiziqishi, huquqiy madaniyati, kasbiy mas’uliyati, ijtimoiy muammolarga munosabati, jamoaviy loyihalarda ishtirok etishi shunday ko‘rsatkichlar qatoriga kiritilsa, xato bo‘lmasa kerak. Shu sababli yuqoridagi davlat dasturlarida ham milliy vatanparvarlik kompetensiyalarini belgilash, kuzatish, o‘lchash, baholash, yaxshilash va rivojlantirishga qaratilgan monitoring mexanizmi nazarda tutilgan.

NASIHAT EMAS, SHAXSIY NAMUNA

Yoshlar tarbiyasida eng kuchli vosita shaxsiy namuna hisoblanadi. Agar yoshga vatanparvarlik haqida ko‘p gapirilsa-yu, lekin u atrofida mas’uliyatsizlik, befarqlik yoki nohalol munosabatlarni ko‘rsa, tarbiyaning ta’siri pasayadi. Shu sababli ota-ona, pedagog, mahalla faoli, rahbar, ziyoli va jamoatchilik vakillarining shaxsiy xulqi katta ahamiyatga ega. Yosh avlod kattalarning aytgan so‘zidan ko‘ra, qilgan ishiga ko‘proq qaraydi.

YOSHLAR BILAN MULOQOT TILINI O‘ZGARTIRISH KERAK

Bugungi yosh kechagi avloddan axborot iste’moli, dunyoqarashi va muloqot uslubi bilan farq qiladi. Shuning uchun uning qalbiga yo‘l topish uchun tarbiya usullari ham yangilanishi kerak. Vatanparvarlik tarbiyasida interaktiv muloqot, ijtimoiy keyslar, filmlar, podkastlar, videokontentlar, intellektual o‘yinlar, tarixiy rekonstruksiyalar, raqamli loyihalar va volontyorlik dasturlaridan samarali foydalanish zarur.

“MEN O‘ZBEKISTONLIKMAN” FAXRDAN MAS’ULIYATGACHA

Taqdim etilgan dasturda yoshlarda “Men o‘zbekistonlikman” degan faxr tuyg‘usini shakllantirish maqsadi alohida qayd etilgan. Bu g‘oyaning mazmuni juda keng va chuqur bo‘lib, “Men o‘zbekistonlikman” degan tushuncha avvalambor, o‘zida tarixiy xotira, til, madaniyat, davlatchilik an’analari, umumiy taqdir va kelajak bilan bog‘liq fuqarolik identifikatsiyasini ifoda etadi. Biroq haqiqiy faxr mas’uliyat bilan birga bo‘lishi lozim. Shundagina vatanparvarlik ijtimoiy kuchga aylanadi.

VATANPARVARLIK – MAMLAKATNI TARK ETMASLIK DEGANI EMAS

Globallashuv davrida yoshlar chet elda ta’lim olishi, xalqaro tajriba to‘plashi va dunyo mehnat bozorida faoliyat yuritishi tabiiy hol. Masalaning mazmuni inson qayerda turganida emas, o‘z bilimi, tajribasi va imkoniyatlarini yurti taraqqiyoti bilan qay darajada bog‘lay olishidadir. Dunyo tajribasini o‘zlashtirib, uni O‘zbekiston manfaatlari uchun qo‘llaydigan mutaxassis ham vatanparvarlikning zamonaviy namunasini namoyon etadi. Bunday yondashuv yoshlarni global raqobat muhitida milliy manfaatlarni anglaydigan kuchli shaxslar sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

VATANPARVARLIKNING YANGI FORMULASI

Bugungi O‘zbekiston yoshlari uchun vatanparvarlikning yangi formulasi quyidagi tushunchalar birligidan iborat bo‘lishi mumkin: **milliy o‘zlik + tarixiy xotira + bilim + kasbiy mahorat + fuqarolik mas’uliyati + ijtimoiy tashabbus + Vatan taraqqiyotiga qo‘shilgan shaxsiy hissa.** Mana shu uyg‘unlik shakllangandagina vatanparvarlik barqaror shaxsiy e’tiqodga aylanishi mumkin.

Vatanparvarlik oilada mehrdan, maktabda bilim va tarixiy xotiradan, talabalikda mustaqil fikr va fuqarolik mas’uliyatida shakllandi, kasbiy faoliyatda esa mehnat, tashabbus va jamiyatga xizmat orqali namoyon bo‘ladi. Shu ma’noda yoshlarni vatanparvar qilib tarbiyalash uchun ularga Vatan taraqqiyotida o‘z o‘rnini ko‘rish, o‘z salohiyatini namoyon etish va jamiyatga foydali bo‘lish imkoniyatini yaratish kerak.

Shu ma’noda zamonaviy vatanparvar yoshning eng muhim belgisi uning Vatan uchun qanchalik foydali ish qilayotganidir. U o‘z tarixini biladi, lekin faqat o‘tmish bilan yashamaydi, milliy qadriyatlarini hurmat qiladi, lekin zamonaviy bilim va texnologiyalardan uzilib qolmaydi, mamlakatidan faxrlanadi, ammo mavjud muammolarga befarq qolmaydi, o‘z huquqlarini biladi, shu bilan birga burch va mas’uliyatini ham anglaydi, eng muhimi o‘z kelajagini Vatan kelajagidan ajratmaydi.

Malohat ZOIROVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti
katta o‘qituvchisi,
siyosiy fanlar bo‘yicha
falsafa doktori *(PhD)*



Suratlar sun’iy intellekt yordamida tayyorlandi

Qarorgoh mehmoni

“ICHIMIZDAGI JADIDNI UYG‘OTA BILISHIMIZ KERAK!”

O‘zbekiston xalq shoiri, “Jadid” gazetasining bosh muharriri, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining deputati, Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi raisi Iqbol Mirzo bilan suhbat



“Islohotlarning eng yorqin namunasini doim aytamanki, armiyada ko‘rasan. Kengashda ijodkor sifatida menga yoqqan jihatlardan bittasi, hech kimning xayoliga kelmagan bir gap, har yili minglab yigitlar xizmatni tugatib uyiga qaytadi. Agar biz ana shu yigitlarga kitob o‘qitsak, tilni o‘rgatsak, kasb-hunarli qilib uyiga jo‘natsak, shuncha mahallaga ziyoli, nur taratadigan vatanparvar vakillarimiz kirib boradi”.

– Iqbol aka, adashmasam, ikki-uch yil avval juda bir ajoyib she’r yozdingiz “Jadidlar yetishmayapti, jadidlar!” degan. Bu she’r “Jadid” gazetasining dunyo yuzini ko‘rishiga ham qaysidir ma’noda sababchi bo‘lganday, nazarimda. Gazeta ta’sis etilishi bilan sizni bosh muharrirlikka taklif qilishdi. Xullasi kalom, bugun siz xohlayotgan jadidlar sahnaga chiqyaptimi?

– Jadidlik tushunchasi aslida yangilik degan ma’noda, yaxshi bilasiz. 130 yil oldin bobolarimiz Ismoil Gaspiralidan kuch olgan, nur olgan, Behbudiy bobomizning izdoshlari shu jadid harakatining haqli vakillari.

– Mana, hozir prokuror jadidlar, harbiy jadidlar degan ta’riflar ham quloqqa chalinyapti. Kuch tuzilmalaridagi jadidlar masalasida ham munosabatingizni bilmoqchiman.

– Ularning orasida ham albatta jadidlar bo‘lgan, shubhasiz. Lekin, masalan, qatag‘on qilindimi, demak, u jadid degan qarash – noto‘g‘ri. Chunki qatag‘on qilinganlarning orasida jadidlarni qatl qilgan, bir umr, faoliyati davomida jadidlarni ta’qib qilgan odamlar ham bo‘lgan.

Shu bilan birgalikda, jadidlar yetishib chiqdimi, jadidlar uyg‘ondimi, degan savolingizga javobim – albatta, bor. Lekin biz ularni o‘sha jadidlarning yoniga qo‘ya olmaymiz. Ular mohiyatan shu jadidlarning izdoshlari.

Aslida hammamizning ichimizda, bugungi tilda aytganda, jadidlarning DNKsi bor. Uni uyg‘ota bilishimiz kerak-da. Biz endi u jadidlar sahifasini bugungi jadidlar avlodi bilan, deylik, shartli ravishda aralashtirib yubormasdan, bularni boshqa nom bilan yoki bo‘lmasam, jadidlarning izdoshlari deb atashni taklif qilaman. Bir paytlar mashhur oshpazni gazetada maqtab yozishgan ekan: “Mana, jadid, o‘zbekning yangi jadidi, bu falon Yevropaning falon mamlakatida osh pishirib, tarqatib, o‘zbek nomini sharaflayapti!” deb. Uni jadid deb bo‘lmaydi-da endi. Jadidlikning eng asosiy jihati bu ma’rifat bilan bog‘liq, ta’lim-tarbiya bilan bog‘liq, g‘oya bilan bog‘liq. Osh tarqatish yoki boshqa bir tadbirkorlikni bunga burib bo‘lmaydi. Ispaniyaga borib restoran ochgan bo‘lsa, u jadid emas-da. O‘zbekning nomini tanitayotgani kifoya emas. Vatanparvar deyishimiz mumkin, millatparvar deyishimiz mumkin.

– Iqbol aka, biroz tarixga qaytsak. O‘n to‘rt yil muqaddam Mudofaa vazirligi huzurida Jamoatchilik kengashini tashkil etish ta’sis yig‘ilishida davlatimiz rahbari, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni o‘sha paytda Bosh vazir sifatida ishtirok etib, yig‘ilishni boshqargan va kengash oldida turgan muhim vazifalarni belgilab bergan edi. Va eng qizig‘i, o‘sha ta’sis yig‘ilishida Jamoatchilik kengashining raisi sifatida sizni tayinlashdi. O‘z-o‘zidan, masalan, sizda ham savol paydo bo‘lgandir, nima uchun shuncha katta siyosatchilar, davlat arboblari turganda shoirni, Yozuvchilar uyushmasining a’zosini Jamoatchilik kengashining raisi sifatida tavsiya qildi, deb. Umuman, o‘sha yig‘ilishdagi muhit, o‘sha jarayonlarni bir eslab o‘ting.

– Bu juda qiziq voqea bo‘lgan. Hech kutilmaganda kechqurun menga qo‘ng‘iroq bo‘lyapti.

Ertaga Ofitserlar uyida soat 15:00 da majlis bo‘ladi, siz ham qatnashishingiz kerak. Muhim topshiriqlar bo‘ladi, deyildi. Xo‘p, dedim, bordim. Keyin Shavkat Miromonovich kelib, majlisni ochib berdi. Biz uchun o‘sha paytda Jamoatchilik kengashi qog‘ozda bor, amalda yo‘q tushuncha bo‘lgan. Bu bir yangilik bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchidan, eng asosiy masala, biz hammamiz hayronmizki, qanday qilib mudofaadek yopiq tizimda jamoatchilik kengashi bo‘lishi mumkin? U nima ish qiladi, degan savol ko‘ndalang. Keyin xullas, Shavkat Miromonovich meni raislikka taklif qildilar, tasdiqlandim. Majlis tugadi, chiqib ketayotgan paytda savol berdim. “Nima ish qilishimiz kerak? Men bir shoir bo‘lsam, bu sohadan uzoq odam bo‘lsam...” desam, bir og‘iz gap bilan tushuntirdilar: “Bu armiya bilan xalq o‘rtasida ko‘prik bo‘lishi kerak”.

– Birinchi bosqich o‘shanda boshlangan ekan-da?

– Ha, armiya bilan xalq o‘rtasida o‘sha payt ko‘prik yo‘q, armiya “Xitoy devori”ning u tomonida, bu yoqda xalq. U yoqda farzanding qanaqa sharoitda yuribdi, qanday xizmat qilyapti, nima yeyapti, nima ichyapti, degan savollarga javob yo‘q. Ota-ona xuddi Sovet paytida armiyaga jo‘natgandek bolasidan xavotirda. “Och qolib, kaltak yemayaptimikin, tinchmikan?” degan masalada. Lekin yaxshi maqsad bilan boshlangan bu ish o‘n to‘rt yil ko‘prik bo‘la olmadi. Xalq bilan armiya o‘rtasida ko‘prik bo‘la olmadi. Biz faqat borib tadbirlarda she’r o‘qiydigan, qo‘shiq qo‘yib, o‘sha yerda tomosha qo‘yib keladigan, ko‘ngilochar vazifani bajardik. KPP *(nazorat o‘tkazish punkti)* eshigi tagida uch soat-to‘rt soatlab sarg‘ayib turardik. “Nimaga kelibdi, kim ekan o‘zi bular?” degan gaplarni eshitganmiz. Endi to‘g‘risini aytish kerak, “Armiya bilan xalq – bir tan-u bir jon” degan shior ham mana endi jonlandi. Mana, endi rostdan armiya eshigini ochdi. Bemalol xalq kirib-chiqadi.



Kartoshka tozalash-u, sabzi-piyoz artish bilan ovora bo‘lgan armiya, paxta teradigan paxtakor armiya, shu siniq armiya, mana endi haqiqiy milliy armiyaga aylandi. Islohotlarning eng yorqin namunasini, doim aytamanki, armiyada ko‘rasan. Prezidentning eng katta qilgan dadil, eng katta sharafli islohoti shu paxta dalasidan bizning xalqimizni, bolalarimizni olib chiqqani bo‘ldi.

O‘g‘il-qizlarimizda o‘qishga, sport bilan shug‘ullanishga imkoniyat paydo bo‘ldi. Bola qo‘rquvdan qutuldi. Chunki paxta zulmi nihoyatda og‘ir zulm edi. Sog‘lom avlod degan shior bor, lekin paxtaning ichida yurgan avlod qanday sog‘lom bo‘lsin? Har tomonlama nogiron bo‘ladi. Aytmoqchi bo‘lganim shuki, paxta dalasidan qutulganimizdan keyin milliy armiya shakllandi, tafakkur shakllandi...

– Iqbol aka, o‘n to‘rt yil davomida siz Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig‘ilishlarida ishtirok etib kelyapsiz. Mana shu o‘tkazilgan yig‘ilishlarning orasida bu yilgisi, menimcha, butunlay boshqacha bo‘ldi.

– Yuragimni junbishga keltirgan narsa, aytdilarki, bizning o‘z sun’iy yo‘ldoshimiz bo‘ladi. Bu degani, o‘zbek xalqi yerdan uzilib, osmonga chiqadi, degani. O‘zimizdan kosmonavt chiqadi. O‘zimizning fazogirimiz, o‘zbek fazogiri chiqib, bobosi – Ulug‘bek kashf etgan yulduzlardan xabar olib keladi, dedilar. Mana shu yerda etlarim jimirlab ketdi. Yana jahondagi e’tiroflar... Pokistonda Bobur bog‘i tashkil etildi, Toshkent ko‘chasi ochildi.

– Undan ham qizig‘ini aytib beray, Iqbol aka. Prezidentimizning layneri, samolyoti Pokistonning chegarasidan o‘tgan paytda Pokistonning oltita qiruvchi samolyoti hurmat belgisi, sharaf nuqtayi nazaridan samolyot qo‘ngunigacha kuzatib bordi. Bu kamdan kam holatda bo‘ladigan voqea. Bu mamlakatimiz rahbariga, uning timsolida o‘zbek xalqiga nisbatan bo‘lgan juda katta hurmat-ehtirom, albatta.

– Kengashda ijodkor sifatida menga yoqqan jihatlardan bittasi, hech kimning xayoliga kelmagan bir gap, har yili minglab yigitlar xizmatni tugatib, uyiga qaytadi. Agar biz ularga kitob o‘qitsak, tilni o‘rgatsak, kasb-hunarli qilib uyiga jo‘natsak, shuncha mahallaga ziyoli, nur taratadigan vatanparvar vakillarimiz kirib boradi. Biz ularni armiyadan bo‘shatyapmiz-da, shu bilan xayr deb, esdan chiqarib yuboryapmiz. Jamoatchilik kengashining oldiga qo‘yilgan vazifa – ularning keyingi faoliyati, ular nima ish bilan shug‘ullanyapti, shunisidan boxabar bo‘lib turish.

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi rahbari Otabek Hasanov bilan birgalikda Vahob Rahmon tahriri asosidagi “Boburnoma”ning harbiylarga oid qismlarini yig‘ib oldik-da, 200 betdan kattaroq kitob tayyorladik. Yurt himoyachilari uchun kerakli qo‘llanmaga aylanadi, degan umiddamiz.

– Juda ajoyib. Bir gap esimga tushdi. Adashmasam, bir yarim yil muqaddam mudofaa vaziri har bir qo‘shin turining o‘z maxsus harbiy chaqirig‘i bo‘lsa, xalq og‘zaki ijodimizdagi dostonlarda mana shunday chaqiriqlar bor, dedilar. Keyin ajoyib shoir ukamiz Bobur Elmurodov bilan kitobni tayyorladik. Mening nazarimda, she’riyat shunchaki dilga nafislik beradigan san’at emas, agar armiya misolida aytadigan bo‘lsak, jangchining ruhini ko‘taruvchi, uni ortga chekinmaydigan jangchiga aylantiruvchi bir kuch. Misol uchun, Ikkinchi jahon urushi davrida Hamid Olimjon yozgan “Jangchi Tursun” balladasi o‘zbek yigitlarimizning jangga



sharaf bilan kirishiga sabab bo‘lgan. Bugun ham mana shunday she’rlar yaratilyaptimi, ularning ta’sir kuchi qanday?

– Adabiyot degan tushuncha adab bilan bog‘liq. Adabning eng katta jihati ota-onaga, Vatanga muhabbat, mehr. Ota-onasini yaxshi ko‘rgandan keyin, albatta, o‘z-o‘zidan vatanparvar bo‘ladi, bu tabiiy.

Kecha Navoiy bobomizning bir baytlariga ko‘zim tushib qoldi:

“Qochib adamg‘a boray aql-u fahm-u donishdin,
Vatan borinda bu yot el aro ne bor manga”,

deyaptilar hazrat. Ma’nosi: “Vatanim bor bo‘lib turgan paytda men boshqa ishlar bilan shug‘ullana olmayman, boshqa joylarda sayr-u sayohat qila olmayman”. Yaxshi bilasiz, Navoiy bobo uch marta hajga otlangan paytlarida qaytganlar. Hatto hajga borish masalasi ham Vatanning osoyishtaligi oldida ikkinchi darajali bo‘lib qolgan. Prezidentimiz bejiz Navoiyni o‘qiylik, Navoiyni tushuntiraylik demayaptilar. Hazratning har bitta satrining mag‘zida millatga bo‘lgan muhabbat, tilga bo‘lgan muhabbat turibdi.

– Nega bugun jamiyatdagi mana shu nuqsonlarni, kam-ko‘stlarni shu jamiyatning oldi bo‘lgan, avangardi bo‘lgan shoirlarimiz bir savalamaydi, tanqid, hajv qila olmaydi? Deputatlarimiz, shu jumladan.

– Adabiyot qurol bo‘lgan doim. Ayniqsa, Zavqiy, Muqimiy, Furqat domlalar paytida. Hatto bu quroldan Turkiston gubernatorligi ham juda faol foydalangan. Ikkita jihatini aytib beraman. 1903-yilda Toshkentda bir qator kitoblar uch ming nusxada toshbosmada maxsus bosilgan. Shu kitoblarni qaraydigan bo‘lsangiz, uning ichida Zavqiyning kitobi yo‘q, Muqimiy tirik, uning kitobi yo‘q, Furqatning kitobi yo‘q. Hammasi tarkidunyolikka chaqiradigan kitoblar chop qilingan. O‘qima, bilim olma, namozingni o‘qi, tarki dunyo qilgin. Bu dunyo o‘tib ketadi. Iskandardan qolgan bu dunyo. Iskandar nima bo‘ldi? Senga vafo qilarmidi? Mana, mozorni ko‘r, kimlar yotibdi bu mozorda, degan qo‘shiqlar, she’rlar.

Adabiyotning kuchini, demak, bu tomonga bursa ham bo‘larkan. “Kiyiknoma” degan qo‘shiqlarni, dostonlarni bizning qishloqlarda kampirlar aytib yig‘lab o‘tirardi. Turgan-bitgani xurofot. Turgan-bitgani odamning ko‘nglini hayotdan sovitadigan. “Ha, o‘larkanman, nima keragi bor?” deydigan. Bularga shu kerak bo‘lganki, o‘zbek xalqi ilm bilan shug‘ullanmasin, o‘qimasin, dunyoviy ishlarga boshini qo‘shmasin.

– Jamiyatimizdagi yana bitta katta qusur, dabdababozlik, to‘y-hashamlar, o‘zini ko‘z-ko‘z qilish degan bema’no odatlarga chek qo‘yish bo‘yicha kurash boshlandi. Ma’naviyatchilar, shu jumladan “Jadid” gazetasi ham bu borada ancha faollik ko‘rsatyapti. Yuz yil oldin Amir Olimxon davrida ham to‘ylarni tartibga solish, taqiqlash bo‘yicha farmonlar bo‘lgan ekan. Lekin hanuz davom etyapti. Shaxsiy namuna yo‘q. Lekin yaqinda sizning timsolingizda onangizning ma’rakalarida shaxsiy namuna ko‘rdim. Bu fikrga qanday kelganingizni o‘zingizdan eshitsak.

– Ayam rahmatli dabdabalarni yoqtirmaydigan, tug‘ilgan kunlarini nishonlaymiz desak ham, kamtarlik qiladigan ayol edilar. Xullas, olamdan o‘tganlaridan keyin ehson, osh berish kerak. Qishloqda mahallaga osh tarqatildi, Toshkentda ham taomilga ko‘ra, shu udumni qilish kerak. Hamma tanish-bilish, birodarlarga aza uch kun, janoza oshi bo‘lmaydi, o‘zingiz duo-tilovat qilib qo‘yaverasizlar, dedim. Onamning 3-4 yillik nafaqa puli yig‘ilib qolgandi, ustiga qo‘shib Yaponiyada tibbiyot yo‘nalishida o‘qiydigan besh talabaga ming dollardan tarqatishni niyat qildim. Nega aynan Yaponiya, desangiz, u yerda xususiy sektorda tahsil oluvchi 10 mingdan oshiq o‘zbek o‘g‘il-qizimiz bor ekan. Davlat, hukumatning yordamisiz universitetlarga o‘zlari borib kirgan. Birinchidan, yapon tilini o‘rganish masalasi qiyinroq, ikkinchidan, tibbiyot yo‘nalishida o‘qiyotgan talabalar Prezident, davlat, hukumatdan tashqari, bizga ko‘z tikib turgan odamlar, xalq ham bor ekan, degan xulosaga kelsin, dedim. Ayam o‘qituvchi bo‘lganlar, o‘yladimki, bu ishdan ularning ruhlari shod bo‘ladi. Bu voqea ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgach, mingta odam qo‘ng‘iroq qildi, yuz elliktasi rahmat aytgan bo‘lsa, qolgani, hatto o‘ziga to‘q tadbirkor tanishlarim ham yordam, qarz so‘rab tindirmadi. Lekin birorta odam chiqmadiki, men ham shunday ishga sherik bo‘lay, yoshlarimizni qo‘llab-quvvatlay, degan. Davralarda ham qoyil, zo‘r ish bo‘ldi, deydi boyvuchcha do‘stlarimiz, ammo men ham qilay, demaydi. Aytganingizdek, shaxsiy tashabbus yo‘q, chunki ibrat yo‘q.

Yaponiyada tuproqshunoslik bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borayotgan qashqadaryolik bir qizimizni ilmiy ekspeditsiyaga, Yaponiyada qolib, ular bilan birga ishlashga taklif qilishgan ekan. U yordamimizni olgach, taklifni rad etib, Vatanimning tuprog‘i men uchun azizroq, meni kutishyapti ekan u yoqda, deb qaytib kelibdi. Shu natijadan xursand bo‘ldim.

– Iqbol aka, ba’zan o‘ylab qolaman, insonning ismida ham xosiyat ko‘p ekan-da. Ota-onangiz sizga bilib, iqboli baland bo‘lsin, deb ismingizni Iqbol qo‘yganmi deyman.

– Sizga Olim deb ism qo‘yilganday gap-da. Chindan ham ism taqdirni belgilaydi, degan gap bor. Buning ortidan, nazarimda, boshqa bir haqiqat ham yuzaga qalqib chiqadi, bu farzandga ism qo‘yayotgan ota-onaning daraja-saviyasi. Suloladagilarning saviyasi baland bo‘lsagina, zurriyot ham shunga yarasha keladi-da. Bizning yoshligimizda juda jo‘n, bir xil ismlar qo‘yilardi. Farg‘onada, xususan Bag‘dod, Buvayda, Uchko‘prik degan joylarda ism oxiriga “ali” qo‘shimchasini qo‘shish urf bo‘lgan. Hamraali, Mirzaali... masalan, men Mirzaliyevman. Holbuki, bu hazrat Aliga iqtido qiladigan mazhab masalasida savol yo‘q. Yana bir xalqimizga xos xislat ismlarda ko‘zga yaqqol tashlanib qoladi: bolaga ko‘z tegmasin, degan ma’noda Yomonboy, Sarimsoq, Sarsonboy kabi g‘alati ismlar qo‘yilgan. Lekin mana, hozirgi paytlarda ismlar o‘zgardi. Bu ham xalqning, millatning ruhiyati bilan, kayfiyati bilan bog‘liq jarayon bo‘lsa kerak.

Men Bobur Mirzoga qayta-qayta qoyil qolamanki, Hindistonni olgan payt yoki olish arafasida tug‘ilgan o‘g‘liga Hindol deb ot qo‘yadi, qarang. Hindni ol, degan ma’noda. O‘zbek shu jihatlari bilan o‘zining qiyofasini ko‘rsatishi kerak-da.

– Iqbol aka, tashrifingiz, mazmunli suhbatingiz uchun rahmat.

– Sizga ham taklif uchun rahmat.

Olimjon O‘SAROV suhbatlashdi.

Taraqqiyot kushandasi

HAR KIMNING MA’NAVIY IMMUNITETI BO‘LSIN!



Bugungi murakkab geosiyosiy jarayonlar, zamonaviy xavf va tahdidlarning shakl va ko‘lam jihatidan o‘zgarib borayotgani davlatning mudofaa salohiyatini yuksaltirish bilan bir qatorda, uning institutsional barqarorligi, boshqaruv samaradorligi va korrupsiyaviy xavflarga chidamliligini ham ta’minlashni taqozo etmoqda.

Shu bois O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tizimida keyingi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar aynan ana shu tamoyillarga tayanilyapti.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev rahbarligida mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish davlat siyosatining strategik yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Davlatimiz rahbari korrupsiyani nafaqat huquqbuzarlik, balki davlat boshqaruvi, qonun ustuvorligi, adolat va jamoat ishonchiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi tizimli xavf sifatida baholab, 2026-yilni korrupsiyaga qarshi kurashda keskin choralar va yangi yondashuvlar yili sifatida belgiladi. Barcha davlat organlarida korrupsiyaga qarshi ichki nazoratni kuchaytirish, davlat mablag‘laridan foydalanishda shaxsiy mas’uliyatni oshirish vazifalari ilgari surildi.

Bu yondashuv Mudofaa vazirligi tizimi uchun ham alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki mudofaa sohasida davlat mablag‘lari, moddiy-texnik resurslar, oziq-ovqat, kiyim-kechak, qurilish, ta’minot, davlat xaridlari hamda kadrlar bilan bog‘liq jarayonlarning shaffof va qonuniy tashkil etilishi mamlakat mudofaa salohiyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Esingizda bo‘lsa, Prezidentimiz raisligida joriy yilning 13-yanvar kuni o‘tkazilgan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida mudofaa sohasini modernizatsiya qilish, armiyani raqamlashtirish, axborot xavfsizligini ta’minlash va harbiy boshqaruv samaradorligini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Mazkur jarayonda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat ham oddiy tekshiruv mexanizmi sifatida emas, balki mudofaa tizimining institutsional barqarorligini ta’minlovchi profilaktik boshqaruv instituti sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu esa yondashuvlarning o‘zgarganini anglatadi.

Avval korrupsiyaga qarshi kurash ko‘proq sodir etilgan huquqbuzarlikni aniqlash va uning oqibatlariga huquqiy baho berish bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda yondashuvning asosiy maqsadi – ana shu xavfni oldindan ko‘rish, baholash, minimallashtirish va uni keltirib chiqaruvchi shart-sharoitlarni tamoman bartaraf etish.

Darvoqe, bu boradagi ishlar samaradorligini oshirish va aniq yo‘lni 2025-yil 30-dekabrda qabul qilingan Prezident farmonida ham ko‘rish mumkin. Unga muvofiq, korrupsiyaning oqibatlari bilan kurashishdan ko‘ra korrupsiyaviy omillarni barvaqt aniqlash, profilaktik mexanizmlarni joriy etish, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish hamda ochiqlikni kuchaytirish 2030-yilgacha bo‘lgan ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan.

Bu normalar Mudofaa vazirligi tizimi uchun ham muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Chunki harbiy xizmatda intizom qonun talabini bajarishning o‘zi emas. Sababi aynan intizom xizmat burchiga sadoqat, mas’uliyat va Vatan oldidagi yuksak javobgarlik ifodasi hisoblanadi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, korrupsiyaga murosasizlikni shakllantirish faqat huquqiy targ‘ibot masalasi bo‘lmasligi kerak. Bu harbiy jamoaning ma’naviy immunitetini mustahkamlash jarayonidir. Ha, korrupsiyaga murosasiz muhit deganda har bir harbiy xizmatchi: “Menga tegishli emas”, “Bu oddiy holat”, “Hamma shunday qiladi” kabi qarashlardan voz kechib, “Qonun – yagona mezon”, “Vazifa – ishonch”, “Halollik – xizmat sharafi” degan tamoyillarga amal qilishini aqlan his qilmog‘i shart.

Raqamlashtirish – korrupsiyaviy xavfni boshqarishning yangi vositasi

Zamonaviy boshqaruvda “raqamli shaffoflik” tushunchasi tobora keng qo‘llanilmoqda. Ularning mazmun-mohiyati bir nuqtada tutashadi: qaror qabul qilish jarayonida subyektiv omillarni kamaytirish va nazoratning samaradorligini oshirish zarur. Mudofaa vazirligi tizimida raqamlashtirishning kengayishi ham korrupsiyaviy xavflarni boshqarish uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda.

Bunda raqamli platformalar orqali ma’lumotlarni tahlil qilish, xavfli jarayonlarni aniqlash, takroriy yoki shubhali operatsiyalarni monitoring qilish, nazorat natijalarini elektron shaklda yuritish va rahbarlarni o‘z vaqtida axborot bilan ta’minlash imkonini beradi. Zamonaviy davlat boshqaruvida inson omilini kamaytirish va korrupsiyadan xoli ekotizim yaratish raqamli transformatsiyaning muhim maqsadlaridan biridir.

Korrupsiyaga murosasiz muhit – kuchli armiyaning institutsional tayanchi

Ta’kidlash kerakki, kuchli armiya tushunchasi bugun faqat harbiy texnika va qurol-yarog‘ bilan o‘lchanmaydi. Shu ma’noda korrupsiyaga qarshi murosasiz muhitni shakllantirish mudofaa tizimining asosiy vazifalaridan biri – mamlakatimiz tinchligi va xavfsizligini ishonchli ta’minlashga bevosita xizmat qiladi.

Korrupsiyaga qarshi ichki nazoratning vazifasi ham aynan jazolashdan ko‘ra, xavfni oldindan ko‘rish va uning yuzaga kelishining oldini olishga tobora ko‘proq yo‘naltirilmoqda.

Bugun O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tizimida ayni yo‘nalishda izchil ishlar olib borilyapti, kelib chiqayotgan omillarga qarshi kurashishni yangi sifat bosqichiga olib chiqish uchun huquqiy, tashkiliy va institutsional asoslar shakllanmoqda.

Bu jarayonning bosh g‘oyasi bitta: korrupsiyaga murosasizlik – faqat talab emas, harbiy xizmat madaniyatining ajralmas qismi bo‘lishi kerak. Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni tomonidan mudofaa va xavfsizlik sohasiga qaratilayotgan yuksak e’tibor armiyamiz salohiyatini har tomonlama yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Eng muhimi, korrupsiyaga qarshi kurashishni faqat “huquqbuzarlikni aniqlash” nuqtayi nazaridan emas, balki “korrupsiyaviy xavfni boshqarish”, “halollik infratuzilmasi”, “komplayens madaniyati”, “raqamli shaffoflik” va “institutsional immunitet” sifatida qarash davri keldi. Chunki mudofaa tizimida har bir qaror, har bir resurs va har bir vazifa ortida Vatan manfaati mujassam. Shu bois har bir harbiy xizmatchi uchun yagona mezon bo‘lishi shart: Vatan manfaati – shaxsiy manfaatdan ustun. Qonun – barcha uchun barobar.

Ana shunday mustahkam qadriyatlar asosida shakllangan korrupsiyaga murosasiz muhit mamlakatimiz mudofaa salohiyatini mustahkamlash, davlat xavfsizligini ta’minlash va Yangi O‘zbekistonning kuchli, adolatli hamda zamonaviy davlat sifatidagi taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shadi.




Podpolkovnik
Sherzod MURODOV,
Mudofaa vazirligi
korrupsiyaga qarshi ichki
nazorat bo‘limi
boshlig‘i o‘rinbosari

Tajriba



HARBIY TOPOGRAFIYA

AN’ANAVIY USULLARDAN INNOVATSION YONDASHUVLARGACHA



Hozirgi zamonaviy milliy armiyamizning merganlaridan nafaqat yuksak salohiyatga ega bo‘lish, balki hozirgi zamonaviy urushlarga mos ravishda rivojlanish, ularni o‘qitishning mutlaqo yangi innovatsion dasturlarga asoslangan ta’lim tizimini joriy etish talabi qo‘yilmoqda.

Mudofaa vazirligi Merganlarni tayyorlash markazida harbiy topografiya fanidan joriy qilingan, chet el armiyalarining tajribalaridan andoza sifatida olingan va takomillashtirilgan azimut o‘yini shaharchasi imkoniyatlari tinglovchilarda muhim ko‘nikmalarni shakllantiradi.

Shaharchada mavjud o‘quv nuqtalari va ularning jihozlanishi:

1. Masofalarni qadamda o‘lchash yo‘lagi.
2. Og‘ish *(derevatsiya)*ni aniqlash yo‘lagi.
3. Azimut o‘yini.
4. 90 gradus burchak ostida harakatlanish yo‘nalishini saqlash.

MASOFANI QADAMDA O‘LCHASH

Ko‘zlangan maqsad: harbiy xizmatchilarda qadamlar hisobi yordamida masofalarni yurib va yugurib qanday aniqlashni tushuntirib, ularda masofalarni qadamda o‘lchashga doir amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishdan iborat.

Azimutlar bo‘ylab harakatlanganda, ma’lum masofani yoki kartada o‘lchangan masofani ortiqcha hisob-kitoblarni amalga oshirmagan holda harbiy xizmatchining shaxsiy qadami yordamida o‘lchangan holda aniq bosib o‘tish maqsadida foydalaniladi.

Mashq bajarish tartibi: dastlab harbiy xizmatchilar 100 metr masofani yurgan holda bosib o‘tadi va ushbu masofada yurish qadamlari sonini hisoblaydi. Har bir harbiy xizmatchidan 100 metr masofada o‘zining juft qadamlar hisobini bilish uchun ushbu mashqni 3-4 marotaba takroran bajarish talab etiladi. So‘ngra harbiy xizmatchilarning 100 metr masofani yugurib bosib o‘tishdagi qadamlari sonini hisoblash xuddi shu tartibda 3-4 marotaba bajarish orqali aniqlanadi.

Ushbu mashqning keyingi bosqichida o‘rganuvchilar 500 metr masofani yurib va yugurib o‘zining juft qadamlar sonini hisoblaydi.

Mashqni bajarishda tekis va notekis joylardan foydalanish tavsiya etiladi.

OG‘ISH (DEREVATSIYA)NI ANIQLASH USULLARI

Ko‘zlangan maqsad: harbiy xizmatchilar harakat yo‘nalishidan chap yoki o‘ng tomonga ketmasligi belgilangan masofalarga tez va aniq yetib borishlari uchun xizmat qiladi.

Og‘ish *(derevatsiya)* ma’lum bir masofada oldingi nuqtadan keyingi nuqtagacha bo‘lgan ixtiyoriy yo‘nalish, harakat davomida harbiy xizmatchining chap yoki o‘ng tomonga o‘z yo‘nalishidan chiqib ketishiga aytiladi.

Og‘ishga ta’sir qiluvchi omillar ikki xil bo‘ladi:

1. Tabiiy omillar.
2. Sun’iy omillar.

Tabiiy omillarga quyidagilar kiradi:

– bir oyoqning ikkinchi oyoqdan tug‘ma uzun yoki kaltaligi;

– inson oyog‘ining biri ikkinchisidan kuchliligi;

– inson ko‘zlarining ko‘rish qobiliyati bir-biridan farq qilishi.

Sun’iy omillarga quyidagilar kiradi:

– joy yoki yer relyefining notekisligi;

– harbiy xizmatchilarning yuk qoplari yelkaga to‘g‘ri taqsimlanmasligi;

– oyoq kiyimining to‘g‘ri tanlanmasligi;

– ob-havo ta’siri *(issiq va sovuq shamolning doimiy o‘ng yoki chap tomondan esishi)*.

Og‘ishni aniqlash mashqini bajarish tartibi: bunda 100 metr masofadan iborat, imkon qadar tekis joy tanlanadi. Bir vaqtda bir nechta harbiy xizmatchi bilan mashqni bajarish mumkin.

Birinchi sherengada turgan harbiy xizmatchilar ko‘zi bog‘langan holda bir-biridan kamida 5 metr oraliq masofani saqlab turadi, birinchi sherengada turgan har bir harbiy xizmatchining orqasida ularning derevatsiya yo‘nalishini belgilovchi vositachilar tayinlanadi. Vositachilar ko‘zi bog‘langan harbiy xizmatchilarning ketma-ket qadamlari ortidan harakatlanib og‘ish yo‘nalishini belgilab boradi. Yo‘riqchining “To‘xta” buyrug‘idan so‘ng o‘rganuvchilarga boylangan ko‘zlarini yechishga va o‘z derevatsiyasini ko‘rishga ruxsat beriladi. Ushbu mashq harbiy xizmatchilarda derevatsiyasi mavjudligiga ishonch hosil qilish uchun kamida uch marotaba bajarish talab etiladi.

AZIMUT O‘YINI

Ko‘zlangan maqsad: magnit azimut bo‘yicha harakatlanish davomida aniq burchak bo‘yicha yo‘nalish va masofani saqlagan holda joy relyefining turli sharoitlarida belgilangan nuqtaga adashmasdan o‘z vaqtida yetib borish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Mashq bajarish tartibi: eng uzoq masofasi 500 metrdan oshmagan holatda boshlang‘ich nuqtaning aylana radiusi bo‘ylab raqamlangan, balandligi 1 metrdan oshmagan ustunlar o‘rnatib chiqilgan va yo‘riqchilar tomonidan boshlang‘ich nuqtadan to raqamlangan ustunlargacha bo‘lgan masofa va graduslari o‘lchab chizma ko‘rinishida qog‘ozga tushirilgan.

To‘siqlar oraliq masofasi 50 metrdan, gradus bo‘yicha esa 5 gradus farqi bilan o‘rnatilgan, agar o‘rganuvchilar azimut bo‘yicha aniq o‘lchay olmasa yoki juft qadam bilan aniq harakatlanmasa, adashib unga berilgan to‘siqqa emas, boshqa raqamli to‘siq oldiga borib qolish ehtimoli yuqori bo‘ladi.

O‘rganuvchilar tarkibi har biri adriano kompasi bilan ta’minlanadi va dastlabki punktda yo‘riqchi tomonidan gradus va masofa beriladi.

O‘rganuvchilarga yakka tartibda yoki juft bo‘lib berilgan gradus va masofa bo‘yicha juft qadam bilan harakatlanib yurib yoki yugurib hisoblab to‘siq oldiga yetib kelgandan so‘ng to‘g‘ri kelganini tekshirish uchun to‘siq oldidan kompas orqali teskari azimut bilan tekshirib ko‘radi. Qaytib kelib, to‘siq raqamini yo‘riqchiga ma’lum qiladi.

Baholash tartibi: o‘rganuvchi to‘siq raqamini noto‘g‘ri aytsa yoki umuman to‘siq oldiga yaqin kelmasa, o‘rganuvchiga qoniqarsiz baho qo‘yiladi yoki o‘lchashni aniq bajarishni o‘rganmagunicha qaytadan topshiriq beriladi.

90 GRADUS BURCHAK OSTIDA HARAKATLANISH YO‘NALISHINI SAQLASH

Ko‘zlangan maqsad: harbiy xizmatchilar tungi paytlarda harakatlanganda belgilangan harakat yo‘nalishini ushlab turish maqsadida mahalliy jismlar, osmon yoritqichlari, relyef shakllaridan foydalangan holda belgilangan nuqtadan harakatni boshlab 90 gradus burilib, o‘z yo‘nalishini saqlagan holda dastlabki marraga qaytish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Mashq bajarish tartibi: harbiy xizmatchilar yakka tartibda tungi vaqtlarda maxsus ajratilgan ochiq dala maydonida *(turli relyef shakllariga ega hudud)* dastlabki A nuqtadan B nuqtaga 500 metr masofani bosib o‘tib, so‘ngra 90 gradusga buriladi *(bunda xarita, kompas va navigatsiya moslamalaridan foydalanishga ruxsat berilmaydi, faqat ko‘rsatkichli (strelkali) qo‘lsoati bundan mustasno)*, B nuqtadan keyingi C nuqtaga shuncha masofani 90 gradus burchak yo‘nalishini saqlagan holda bosib o‘tadi va keyingi D hamda dastlabki A nuqtaga shu tartibda harakatlanib, belgilangan masofani bosib o‘tadi.

Ushbu mashq dastlab o‘ng tomonga, so‘ngra chap tomonga 90 gradus burchak ostida burilib, harakatlanish tartibida olib boriladi.

Mashq o‘rganuvchilar tomonidan dastlabki nuqtaga xatosiz yetib kelish ko‘nikmasi shakllanmagunicha takror bajariladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ushbu yangicha yondashuvlar o‘quv jarayonini samarali qilib, mashg‘ulotni yanada tushunarli va qiziqarli o‘tkazishga ko‘mak beradi. Shu bilan birga, mashg‘ulotni real sharoitga yaqinlashtirib, jangovar tayyorgarlik sifatini oshirish va zamonaviy mutaxassislarni tayyorlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

II darajali serjant
G‘ayrat JABBOROV,
Merganlar tayyorlash markazi
sikl katta yo‘riqchisi

Armiya va ta’lim







BUGUNGI VATAN HIMOYACHISI ERTANGI MALAKALI MUTAXASSIS

Bugun harbiy xizmatni o‘tayotgan yoshlar uchun Vatan oldidagi burchini ado etish bilan bir qatorda bilim olish va oliy ta’limda tahsilni davom ettirish imkoniyatlari ham kengayib bormoqda. Bu esa harbiy xizmatchilarning intellektual salohiyatini yuksaltirish, kelgusidagi faoliyati uchun zarur bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.



Yaratilayotgan ana shunday ta’lim imkoniyatlaridan Janubi-g‘arbiy maxsus harbiy okrug tasarrufidagi Xayrobod garnizonida joylashgan harbiy qismda xizmat qilayotgan askarlar ham samarali foydalanmoqda.

Ayni vaqtda oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilingan askarlar harbiy xizmatdan ajralmagan holda masofaviy ta’lim shaklida tahsil olmoqda. Bugungi mashg‘ulot jarayonida ham ular onlayn darslarda ishtirok etib, o‘z mutaxassisliklari bo‘yicha yangi bilimlarni o‘zlashtirmoqda.

Zamonaviy axborot texnologiyalari asosida tashkil etilayotgan bunday mashg‘ulotlar harbiy xizmat bilan ta’limni bir vaqtda olib borish imkonini bermoqda. Askarlar nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga o‘z sohalariga oid amaliy ko‘nikmalarini ham rivojlantirishga alohida e’tibor qaratmoqda.

Muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar Xurshid Erkinov mazkur imkoniyatdan unumli foydalanayotgan yoshlardan biridir. Samarqand viloyatining Ishtixon tumanida tug‘ilib o‘sgan Xurshid bugun Toshkent davlat texnika universitetining Axborot tizimlari va texnologiyalari fakulteti talabasi. U kelajakda o‘z tanlagan sohasining yetuk mutaxassisi bo‘lishni maqsad qilgan. Uning bugungi intilishi esa ana shu maqsad sari tashlanayotgan dastlabki qadamlardan biri.

– Harbiy xizmatda intizom qanchalik muhim bo‘lsa, bu xususiyat ta’lim jarayonida ham juda kerak ekan, – deydi oddiy askar Xurshid Erkinov. – Ilgarigiga qaraganda vaqtni qadrlay boshladim. Hozir daqiqalarni behuda o‘tkazsam, keyin uning o‘rnini to‘ldirish qiyin bo‘lishini tushunib, bor diqqat-e’tiborimni bilim olishga, o‘qib-o‘rganishga qaratyapman. Eng katta orzum – Vatanimga kerakli mutaxassis bo‘lib, uning ravnaqiga munosib hissa qo‘shish. Zotan, Vatanga xizmat qilishning bir ko‘rinishi uning himoyasi bo‘lsa, yana bir ko‘rinishi yaxshi kasb egasi bo‘lib, yurt taraqqiyotiga ulush qo‘shish, deb o‘ylayman.

Oddiy askar Dilmurod Serikboyev ham xuddi shunday maqsad bilan harakat qilyapti. Toshkent viloyatining Yuqori Chirchiq tumanidan muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan Dilmurod Farg‘ona davlat universitetining Kompyuter injiniringi fakultetiga o‘qishga kirgan.

Uning aytishicha, kompyuter texnologiyalari, dasturlash va zamonaviy raqamli yechimlarga qiziqadigan yosh askar uchun masofaviy ta’lim – bilimlarini uzluksiz davom ettirish imkoni bo‘lyapti.

– O‘qishga kirganimdan juda xursandman, – deydi u. – Har bir darsga mas’uliyat bilan yondashib, topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarishga intilyapman. Chunki darslarni keyinga qoldirib yuraversangiz, vazifalar yig‘ilib ketadi. Shuning uchun harbiy xizmatda bo‘lgani kabi ta’lim olishda ham o‘zimni intizomga o‘rgatyapman. Bu ko‘nikma kelajakda ham menga kerak bo‘ladi, deb o‘ylayman.

Xizmat va ta’limni bir vaqtda olib borayotgan yoshlar orasida Vohidjon Ibragimovning ham o‘z o‘rni bor. Samarqand viloyatining Payariq tumanidan harbiy xizmatga chaqirilgan Vohidjon Navoiy davlat universitetining Buxgalteriya hisobi fakulteti talabasi.

Uning tanlagan yo‘nalishi aniqlik, mas’uliyat va e’tiborni talab etadi. Shuning uchun u ham har bir dars mashg‘ulotida faol ishtirok etyapti. Chunki bugun egallanayotgan bilimlari uning kelgusi kasbiy faoliyati uchun muhim poydevor bo‘lishini yaxshi anglaydi.

– Kelajakda yaxshi hisobchi, o‘z ishining mutaxassisi bo‘lishni xohlayman. Buning uchun hozirdan bilim olishim kerak. Harbiy xizmat esa menga mas’uliyatli bo‘lishni, vaqtni qadrlashni va qiyinchilik oldida chekinmaslikni o‘rgatyapti. Shuning uchun bugungi xizmatimni ham, o‘qishimni ham kelajagim uchun muhim maktab deb bilaman.

Darhaqiqat, bugun armiya safida xizmat qilayotgan yoshlarning maqsad va intilishlari turlicha. Kimdir muhandis, kimdir dasturchi, yana kimdir iqtisodchi bo‘lishni orzu qiladi. Ammo ularni birlashtirib turgan jihat Vatanga xizmat qilish bilan birga ko‘proq bilim olish va kelajak uchun mustahkam poydevor yaratish istagidir.

Zero zamonaviy armiyaga nafaqat jismonan baquvvat va harbiy tayyorgarlikka ega, balki intellektual salohiyati yuksak, axborot texnologiyalaridan erkin foydalana oladigan, mustaqil fikrlaydigan va yangi bilimlarni egallashga intiladigan kadrlar ham zarur.

Shu ma’noda harbiy xizmat va ta’limning uyg‘unligi yoshlar uchun berilgan oddiy imkoniyat emas. Bu ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga xizmat qiladigan muhim tizimdir.

Bugun kompyuter ekrani qarshisida onlayn dars tinglayotgan askar ertaga zamonaviy kasb egasi sifatida mamlakat taraqqiyotiga hissa qo‘shishi mumkin. Harbiy xizmat ularga matonatni, ta’lim esa bilimni beradi. Ularning uyg‘unligi esa yosh avlodning har tomonlama yetuk inson bo‘lib shakllanishi uchun mustahkam zamin yaratadi. Zotan, bugungi askar nafaqat Vatan himoyachisi, balki u o‘z kelajagini bugundan qurayotgan yosh mutaxassis ham sanaladi.

III darajali serjant
Akbar AHMEDOV
Termiz garnizoni







Xalqparvarlik

JAHONGIRNING “JASORAT”I

Bolalikda “Jasur” filmini ko‘rib ulg‘aymagan bola bo‘lmasa kerak. Bir askar bilan suhbatlashgan vaqtimiz shu filmdan so‘ng postda sergak turganini hayajon bilan aytib bergandi. Ha, film qahramoni chindan ham yurt qahramoni obrazida minglab “Jasur”larning qalbini zabt eta oldi. Bugungi qahramonimiz kinoda emas, balki real hayotda qahramonlik va jasorat ko‘rsatgan zamondoshlarimizdan. Keling, hammasini boshidan aytib beray-da, so‘ng suhbatga o‘taylik. Nima dedingiz?



Suhbatdoshimiz o‘sha voqea sodir bo‘lganida yosh ofitser edi. Tungi navbatchilik odatdagidek davom etayotgan bir palla. Chegara postida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilar o‘z vazifalarini bajarar, atrof nazoratda. Bir payt chegaraning narigi tomonida qonunbuzarlar harakati aniqlandi.

Vaziyat haqida xabar berildi. Chegara bo‘linmasidagi harbiy xizmatchilar sergaklikni kuchaytirdi. Himoyaga qo‘shimcha kuchlar yo‘naltirildi. Vaziyat bir necha lahzada keskinlashdi. Harbiy xizmatchilar belgilangan tartibda post mudofaasini ta’minlash va qonunbuzarlarning harakatini to‘xtatishga kirishdi.

Tun qorong‘isida kimning qayerda harakatlanayotganini aniqlash oson emasdi. Shuning uchun har bir qaror ehtiyotkorlik va aniqlikni talab qilardi. Asosiy vazifa davlat chegarasini himoya qilish, qonunbuzarlarning chegarani buzib o‘tishiga yo‘l qo‘ymaslik va vaziyatni nazoratga olish edi. Ko‘p o‘tmay qonunbuzarlardan biri qo‘lga olindi. Tekshiruv jarayonida qonunbuzar yonidan giyohvand modda aniqlandi. Xizmat bajarildi: davlat chegarasini buzib o‘tishga uringan shaxs ushlandi, giyohvand moddalarning olib o‘tilishiga yo‘l qo‘yilmadi.

O‘sha paytda yosh chegarachi-ofitser bo‘lgani uchun bu xizmatdagi eng og‘ir sinovlardan biri edi. U kasbiga sadoqati va yurtiga bo‘lgan cheksiz mehr-u muhabbatini so‘zlarda emas, balki amalda isbotladi. Vatan himoyachilari kuni bayramida xizmatlari munosib e’tirof etilib, davlatimiz rahbari tomonidan “Jasorat” medali bilan taqdirlandi. Bu qisqa hikoya Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Chegara qo‘shinlari harbiy san’ati kafedrasi o‘qituvchisi, harbiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori *(PhD)* podpolkovnik Jahongir Malikov haqida edi. Jahongir o‘qituvchilikka kirib kelguniga qadar Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlari harbiy qism va muassasalarida turli lavozimlarda xizmat faoliyatini olib borgan. Hozir esa ilm yo‘lini tanlagan qadrli ustozlardan.

Ana endi qahramonimiz bilan suhbatimizni boshlasak:

– Davlat chegarasini himoya qilish jarayonida ko‘rsatgan jasoratingiz uchun “Jasorat” medali bilan taqdirlangansiz. O‘sha voqeani bugun eslaganda, o‘sha lahzada siz uchun eng katta mas’uliyat nima edi? Jasorat insonda nimadan shakllanadi?

– O‘sha voqeani eslaganimda, birinchi navbatda, mukofot emas, o‘sha kunning mas’uliyati yodimga tushadi. Chegarada xizmat qilayotgan odam uchun ba’zi vaziyatlarda o‘ylashga ham, ikkilanishga ham vaqt bo‘lmaydi.

Bir narsa aniq bo‘ladi: orqangizda Vatan, yongingizda safdoshlaringiz turibdi. Shu paytda o‘zingizni emas, vazifangizni o‘ylaysiz.

Menimcha, jasorat bir kunda paydo bo‘lmaydi. U insonning tarbiyasi, oilasi, ustozlari, yillar davomida olgan ta’limi va mashg‘ulotlari bilan shakllanadi. Lekin hal qiluvchi lahzada bularning barchasini bir nuqtaga jamlaydigan kuch bor. Bu burch va Vatanga sadoqat.

“Jasorat” medali menga faqat rag‘bat bo‘libgina qolmay, zimmamdagi mas’uliyatni har dam eslatib turadi. Mukofot bilan barcha taqdirlanishi mumkin, ammo unga bildirilgan ishonch – munosib bo‘lib qolish qiyinroq.

– Bugun siz harbiy xizmatchi, ilmiy darajaga ega tadqiqotchi sifatida faoliyat yurityapsiz. Ilmiy izlanishlaringiz nimani hal etishga qaratilgan?

– Men ilmiy ishga shunchaki ilmiy daraja olish uchun kirishmaganman. Xizmatda ko‘rganlaringiz sizda savollar qoldiradi. Menda ham shunday bo‘ldi.

Chegarada xizmat qilgan odam ba’zi vaziyatlarni keyinroq tahlil qiladi. “Bu holatda yana nimani boshqacha qilish mumkin edi?”, “Ofitser qanday qaror qabul qilishi kerak?”, “Bugungi sharoitda unga qanday bilim kerak?” degan savollar paydo bo‘ladi. Ilmiy izlanishlarimda shu savollarga javob izlayman.

Hozirgi ofitserning bilimi faqat o‘zining ixtisosligi bilan cheklanib qolmasligi kerak. U vaziyatni tahlil qila olishi, mustaqil fikrlashi, texnologiyalardan foydalanishi va odamlar bilan ishlay bilishi zarur.

Men uchun eng muhimi – ilmiy ish qog‘ozda qolmasligi. Agar biror tadqiqot natijasi kursantga darsda, ofitserga xizmatda kerak bo‘lsa, shuni natija deb hisoblayman.

– Chegaradagi real xizmat tajribasidan keyin universitet auditoriyasiga kirib, bo‘lajak ofitserlarga dars berish qanday tuyg‘u? Amaliyotda olgan qaysi saboqlaringizni ularga yetkazishga harakat qilasiz?

– Rostini aytsam, auditoriyaga birinchi kirganingizda mas’uliyatni boshqacha his qilasiz. Chegarada qaror qabul qilasiz – natijasini tezda ko‘rasiz. Auditoriyada esa bugun aytgan gapingizning natijasi balki besh, o‘n yildan keyin ko‘rinadi. Oldingizda o‘tirgan kursant ertaga ofitser bo‘ladi. Unga bir kuni qiyin vaziyatda qaror qabul qilishga to‘g‘ri keladi. Ana shuni o‘ylab dars beraman. Shuning uchun men faqat mavzuni tushuntirish bilan cheklanmaslikka harakat qilaman.

– Nima uchun aynan o‘qituvchilik kasbini tanladingiz? Chegaradagi jangovar vazifa bilan bir ofitserning dunyoqarashi va kasbiy salohiyatini shakllantirish o‘rtasida qanday farq bor?

– Men bu ikkisini bir-biridan uzoq deb o‘ylamayman. Chegarada turganingizda Vatanni himoya qilasiz. Auditoriyada esa shu vazifani ertaga bajaradigan insonni tayyorlaysiz. Menda xizmat davrida to‘plangan tajriba bor. Agar shu tajribani o‘zim bilan olib ketsam, uning foydasi cheklangan bo‘ladi. Uni yoshlarga berishim mumkin. Ular esa uni yanada rivojlantirishi mumkin.

Shu fikr menga o‘qituvchilikka boshqacha qarashni o‘rgatdi. Ba’zan darsdan chiqib, “Bugun shu bolalarga kerakli biror narsa bera oldimmi?” deb o‘zimga savol beraman. Men uchun o‘qituvchilikning asosiy ma’nosi ham shu.

– Harbiy xizmat, ilmiy faoliyat, pedagogik ish... Bularning barchasi katta mehnat talab qiladi. Bunday hayotda oilangizning o‘rni qanday?

– Oilasiz bu yo‘lni tasavvur qilish qiyin. Chegarada xizmat qilgan paytlarimda uydagilardan uzoqda bo‘lgan kunlarim ko‘p. Siz xizmatdasiz, ular esa uyda sizni kutishadi. Ba’zan telefon orqali bir necha daqiqa gaplashishning o‘zi odamga kuch beradi. Oila a’zolaringiz ham harbiy xizmatni siz bilan birga yashaydi, desam, mubolag‘a bo‘lmaydi. Siz postda bo‘lasiz, ular esa uyda kutishadi. Ilmiy ish va darslar bilan band paytlarimda ham ularning tushunishi men uchun muhim. Shuning uchun erishgan natijalarimni faqat o‘zimning mehnatim deb aytolmayman. Bu yo‘lda oilamning sabri ham bor.

– Siz uchun Vatan tushunchasi xizmat vazifasidan tashqarida nimani anglatadi? Chegarada turgan ofitser bilan bo‘lajak ofitserni tarbiyalayotgan pedagogning Vatan oldidagi burchida qanday umumiylik bor?

– Men Vatan, deganda faqat chegarani ko‘z oldimga keltirmayman. Vatan – uyingiz, ota-onangiz, farzandlaringiz, ustozlaringiz, tug‘ilib o‘sgan joyingiz. Siz xizmat qilayotganda aslida ana shu qadriyatlarni himoya qilasiz. Chegarada turgan ofitser sarhadni qo‘riqlaydi. O‘qituvchi esa ertaga shu sarhadda turadigan ofitserni tayyorlaydi. Men bugun shu ikki vazifaning o‘rtasidagi bog‘liqlikni yanada ko‘proq his qilaman. Ilgari Vatan oldidagi burchimni chegarada bajargan bo‘lsam, bugun auditoriyada bajaryapman. Faqat vazifa joyi o‘zgargan.

– Kelajakda qanday maqsadlarni amalga oshirishni istaysiz? Sizdan saboq olgan yosh ofitserlar yillar o‘tib, siz haqingizda nimani eslashini xohlardingiz?

– Ilmiy izlanishlarimni davom ettirish niyatim bor. Harbiy ta’limda amaliyotga kerak bo‘ladigan tadqiqotlar qilishni, dars berishda ham yangi usullarni izlashni xohlayman. Lekin bir narsa men uchun hamisha muhim bo‘lib qoladi: shogirdlarimning keyingi yo‘li. Yillar o‘tib, ulardan biri oldimga kelib, “Ustoz, siz aytgan gapingiz menga xizmatda kerak bo‘ldi”, desa, men uchun katta natija shu bo‘ladi. Unvonlar vaqt o‘tishi bilan qoladi. Medallar ham xotirada qoladi. Ammo insonning shogirdlari ortidan yursa, uning mehnati davom etadi. Chegarada xizmat qilgan kezlarimda vazifamni bajarganman. Bugun esa yosh ofitserlarni tayyorlayapman. Ertaga ularning qaysidir biri chegarada turishi mumkin. Shunda men bugungi mehnatimning ma’nosini yanada yaxshiroq his qilaman.

– Ajoyib suhbat uchun tashakkur. Bayram munosabati bilan o‘qituvchilarga tilaklaringiz...

– Xalqimizda ustoz otangdek ulug‘ degan purma’no hikmat mujassam. Otalar bizning bu dunyoga kelishimizga sababchi bo‘lgan ulug‘ zotlar sanalsa, ustozlar yerdan yuqori tomon yuksalishimizga sababchi, komil inson bo‘lishimiz yo‘lida beminnat xizmat qilgan ulug‘ zotlardir. Fursatdan foydalanib, barcha ustozlarni bayram bilan chin dilimdan muborakbod etaman. Har vaqt shogirdlar ardog‘ida yurish nasib qilsin. Bayramingiz muborak bo‘lsin, aziz ustozlar!

Shohista ABDURAHMONOVA suhbatlashdi.

Unutilmas jasorat

Intizorlikning SAKSON YILI



Ikkinchi jahon urushi. Bu so‘zni eshitgan inson borki, beixtiyor bir lahza sukutga cho‘madi, xayolidan esa millionlab odamlarning taqdiri, ayriliq va yo‘qotishlar o‘tadi. Urush tugaganiga sakson yildan ortiq vaqt o‘tgan bo‘lsa-da, uning asoratlari, insonlar qalbida qoldirgan chuqur izlari hanuzgacha o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q.

Otaning boladan, farzandning onadan ayrilishiga, minglab insonlarning hayoti zavol topishiga sabab bo‘lgan bu mudhish urushda yurtimizning qanchadan qancha mard va jasur o‘g‘lonlari jang maydonlarida halok bo‘ldi. Ularning aksariyati oilasi, yaqinlari va orzu-umidlarini ortda qoldirib, Vatan himoyasi uchun frontga otlangan edi. Birgina Farg‘ona viloyatidan Ikkinchi jahon urushiga 150 mingdan ortiq kishi safarbar qilingan. Afsuski, ularning 54 ming 981 nafari halok bo‘lgan, ayrimlari esa bedarak yo‘qolib, taqdiri yillar davomida yaqinlari uchun jumboq bo‘lib qolgan.

Ana shunday urush domida bedarak yo‘qolgan insonlardan biri To‘xtasin ota Rahmatovdir.

To‘xtasin Rahmatov 1910-yilda Farg‘ona tumanining Qal’acha qishlog‘ida dunyoga kelgan. O‘rta maktabni tamomlagach, qishloqda maktab ochib, bolalarning savod chiqarishiga ko‘maklasha boshlaydi. O‘sha davrdagi iqtisodiy qiyinchiliklar, yetishmovchilik, eng zarur buyumlarni topish mushkulligiga qaramay, u ma’rifat yo‘lidagi faoliyatini to‘xtatmaydi. Keyinchalik Log‘on qishlog‘iga ko‘chib o‘tadi va shu davrda oila quradi.

Biroq urushning boshlanishi To‘xtasin Rahmatovning hayotini ham butunlay o‘zgartirib yuboradi. Moddiy-texnika bazasi zaif, o‘quv sharoitlari talabga javob bermaydigan qishloq maktablari asta-sekin yopila boshlaydi. Mehnatga layoqatli o‘quvchilar dalalardagi ishlarga jalb etilsa, o‘qituvchilar frontga safarbar qilinadi.

Dastlab 1942-yil boshlariga qadar o‘qituvchilarga harbiy xizmatga chaqirilishni kechiktirish huquqi berilgan edi. Biroq frontlardagi og‘ir vaziyat hukumatni bu tartibni o‘zgartirishga majbur qiladi. Natijada ta’lim sohasi vakillari ham boshqa fuqarolar qatori harbiy xizmatga chaqirilib, jang maydonlariga yuborila boshlanadi.

To‘xtasin ota Rahmatov ham 1942-yil 21-iyulda harbiy xizmatga chaqiriladi. U 34-zaxira o‘qchi brigadasi tarkibidagi 211-zaxira o‘qchi polkida Markaziy Osiyodan kelgan boshqa jangchilar bilan birgalikda dastlabki harbiy tayyorgarlikdan o‘tadi. Shundan so‘ng harbiy eshelon tarkibida frontga jo‘natiladi.

To‘xtasin ota shu yili oilasiga so‘nggi maktubini yozadi. Keyin esa... urushning olovli girdobida qolgan insondan boshqa hech qanday xabar kelmaydi.

Yillar o‘tadi, farzandlari ulg‘ayadi. Ular otalarining taqdirini bilish, hech bo‘lmasa, qayerda va qanday holatda bedarak yo‘qolganini aniqlash umidida bir necha bor harbiy komissariatga murojaat qilib, xatlar yozadi. Ammo barcha urinishlar besamar ketadi. To‘xtasin Rahmatovning keyingi taqdiri haqida biror ishonchli ma’lumot topilmaydi. Eng achinarlisi, uning nomi negadir “Xotira” kitoblarida ham qayd etilmaydi. Go‘yoki, u urushga ketgan-u, tarix sahifalaridan ham izsiz g‘oyib bo‘lgandek edi.

Ammo To‘xtasin otaning rafiqasi umrining oxiriga qadar uning qaytishiga ishonib yashaydi. Afsuski, na o‘zi, na farzandlari otadan biror xabar olish baxtiga muyassar bo‘ladi.

Biz esa aynan shu inson – To‘xtasin ota Rahmatovning taqdiri bilan qiziqdik va yillar davomida chala qolib kelgan izlanishni oxiriga yetkazishga qaror qildik. Zero so‘nggi yillarda Prezidentimiz tashabbusi bilan Ikkinchi jahon urushida O‘zbekiston xalqining ishtiroki tarixini o‘rganish yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu borada qabul qilingan qator farmon va qarorlar, yaratilgan yangi imkoniyatlar tufayli urushda halok bo‘lgan yoki bedarak yo‘qolgan yurtdoshlarimizga oid ko‘plab hujjatlar arxivlardan aniqlanib, ularni o‘rganish va ilmiy muomalaga kiritish imkoniyati kengaydi. Natijada yillar davomida o‘zgarmasdek tuyulgan statistik ma’lumotlar, fakt va raqamlarga yangi ma’lumotlar qo‘shilib, tarixning noma’lum sahifalari birin-ketin oydinlasha boshladi.

Bugungi kunda uning 1942-yilda harbiy xizmatga safarbar etilgani va keyinchalik bedarak yo‘qolgani haqidagi bir nechta ma’lumotnomalar aniqlandi. Yillar davomida javobsiz qolgan savolga, hech bo‘lmasa, ilk bor aniq dalillar bilan javob topildi.

“Xayrli ishning erta-kechi bo‘lmaydi”, deganlaridek, bu xabar To‘xtasin otaning xonadon vakillariga yetkazildi. Uning harbiy xizmatga chaqirilgani va bedarak yo‘qolganini tasdiqlovchi ma’lumotnomalar nusxalari oila a’zolariga topshirildi.

Albatta, izlanishlar shu bilan to‘xtagani yo‘q. To‘xtasin ota Rahmatovning qayerda, qaysi jangda bedarak yo‘qolgani hozircha aniqlanmagan. Uning frontdagi so‘nggi manzili va taqdiriga oid yangi ma’lumotlarni topish bo‘yicha tadqiqotlar davom etmoqda.



Surat sun’iy intellekt yordamida tayyorlandi

Abduhoshim MAXAMADOV,
Farg‘ona davlat universiteti magistranti

O‘tmish sadosi

QAMOQXONADA TUG‘ILGAN “VIJDON TAVBASI”



XX asrda ilm-fan, xususan badiiy adabiyotga e’tibor ortishi tufayli adabiy-badiiy manbalarning arxivlari ham tashkil topa boshladi. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi sobiq Qo‘lyozmalar instituti, hozirgi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyida yig‘ilgan qo‘lyozmalar fondi shular jumlasidan. Mazkur arxivning tashkil etilishida professor Hamid Sulaymonning alohida o‘rnini ta’kidlash zarur.

Arxiv materiallaridan foydalanish doirasi keng bo‘lib, tarix, kriminologiya, sotsiologiya, sud-huquq ilmi *(yurisprudensiya)* bilan chegaralanmaydi. Filologik tadqiqotlar hujjatlarda yashirin haqiqatni xalqqa tez va ta’sirli tarzda yetkazib berishi, jamiyat ma’naviy ehtiyojlarini to‘liqroq qondirishi mumkin.

Manbalarda keltirilishicha, Lev Tolstoyning “Tirilish” romani yaratilishida bir sud ishi va unga oid faktlar, Frederik Stendalning “Qizil va qora” asari uchun ham o‘z vaqtida Fransiyada shov-shuv bo‘lgan sud va uning materiallari asos bo‘lib xizmat qilgan edi. O‘zbek adabiyotida bunday tipdagi asarlar asosan sobiq Ittifoq olib borgan qatag‘on siyosati mavzusi doirasida amalga oshirilgan bo‘lsa-da, mazkur jinoiy ishlarning “mutlaqo maxfiy” saqlanishi uzoq vaqtlar ularni o‘rganish imkonini chekladi. Arxivlar tadqiqotchilar uchun mustaqillik yillarida ochildi. Shu tariqa kompartiyaning manfur qilmishlari haqida ilmiy ishlar bilan bir qatorda badiiy asarlar ham dunyoga kela boshladi.

Yozuvchi Nabijon Boqiyning “Qatlnoma” qissasi sof badiiy emas, balki hujjatli asardir. Qissa adabiy jamoatchilik tomonidan qizg‘in kutib olindi.



Binobarin, Abdulla Qodiriy va unga bog‘liq sir pardasi ko‘tarilib, ko‘plab taniqli kishilar haqida bahslar yuzaga keldi.

N. Boqiy o‘rgangan vaqtda NKVD arxivi materiallari maxfiylikdan chiqarilgan edi. Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romani esa “paxta ishi” ayni avj olgan davrda harakatdagi qatag‘on haqida yozilgan. Shu sababli adibning maxsus arxivga kirib ishlashi mumkin emasdi. *“Ana shu vaqt qatag‘on avj oldi... Nihoyat, qama-qama avj oldi. O‘zbek ziyolilari kishanband bo‘ldi. O‘zbek ziyolilari mahbus bo‘ldi. O‘zbek ziyolilari kechalab-kechalab Moskvaga olib ketildi. So‘roq Moskvada bo‘ldi. Sud Moskvada bo‘ldi. Hukm Moskvada o‘qildi. Ana shunda polvonlik qonim qaynadi!.. Bir oyog‘im institutda bo‘ldi, bir oyog‘im sudlarda bo‘ldi. Men tanish-bilish yo‘li bilan tergov matnlarini sotib oldim. Ikki og‘iz axborot olish uchun yarimtalar quydim”*, deb yozadi adibning o‘zi.

Shu tariqa “O‘zbek xalqiga haykal qo‘yaman” deb niyat qilgan adib “paxta ishi” bilan nohaq ayblangan xalq farzandlari haqida “Otamdan qolgan dalalar” romanini yozdi. Roman tergov materiallari asosida bitilgan bo‘lsa-da, sof badiiy asar. U mustaqillik yillari o‘zbek adabiyotida voqea bo‘ldi.

Bu davrda Naim Karimov, Sherali Turdiyev, Begali Qosimov, Boybo‘ta Do‘stqorayev, Sirojiddin Ahmad singari zahmatkash olimlar yaratgan tadqiqotlar o‘zbek madaniyati tarixida katta iz qoldirgan jadidlar hayoti va faoliyatini ibrat o‘laroq kashf etdi, mustaqillik mafkurasini yaratishda dasturilamal vazifasini o‘tadi. Bu ish yana shunisi bilan qadrliki, birinchidan, arxivlarga kirish nihoyatda qiyin, ruxsatnoma olguncha bir qancha byurokratik to‘siqlardan oshib o‘tish kerak bo‘ladi. Ikkinchidan, arxivda ishlash mashaqqati ham bor. Ishning eng qiyin qismi – bu yerda Markaziy davlat arxivi yoki boshqa arxivlarga o‘xshagan alohida o‘qish zallari yo‘qligi. To‘g‘ri kelgan bo‘sh xonada ishlaysiz. Yoningizda esa sizni kuzatishga biriktirilgan xodim. Aslida bu ishning tashqi tomoni. Tom ma’nodagi zahmat ishni o‘qish jarayonida boshlanadi. Hujjatlar millatimiz oydinlari ustidan ochilgan jinoyat ishlari bo‘lgani bois sodir etilgan qabohatlar kishini ruhan ezadi. Buning ustiga, hujjatlar juda ko‘p va qati buzilmagan. Bu esa ularning zalvorini yanada orttiradi. Ayni chog‘da birlamchi manbalar bilan ishlash zavqini beradi.

Masalaning yana bir nozik tomoni bor. Bu – nashr masalasi. Ming mashaqqat bilan yozilgan ishni chop etadigan jasur noshirlar yetarli emas. Uzoq vaqt qo‘rquv saltanatida yashaganimiz xalqimiz ko‘ngliga panada qolish kayfiyatini singdirgan, shuning uchun ham qaltis mavzularda yozilgan ishlarni hamma noshirlar ham chop etavermaydi.

Ushbu satrlar muallifi ham 2019-yilning aprel–iyun oylarida Davlat xavfsizlik xizmati arxivida saqlanayotgan Abdurahmon Alimuhammedov, Hamid Sulaymon, Nabi Alimuhammedov, Mirzakalon Ismoiliy, Shuhrat, Shukrullo, Mahmud Murodov, Meli Jo‘rayevning 726-sonli jinoyat ishi materiallari bilan tanishib chiqdi. Ularga umumiy “delo” ochilgan, jinoiy ishning hajmi 16 jilddan iborat. Bundan tashqari, har bir ayblanuvchining “shaxsiy ishi” mavjud. Hammasini qo‘shib hisoblaganda, 24 jildli aybnoma. Materiallar bilan tanishib, ayrim hujjatlardan nusxa olishga ham muvaffaq bo‘ldik.

Ish A. Alimuhammedov va boshqa ayblanuvchilar haqida Homil Yoqubovning “Qizil O‘zbekiston” gazetasida *(1949-yil 16-may)* chop etilgan “Adabiyotimizda estet-kosmopolitlarni oxirigacha fosh qilaylik” sarlavhali qoralovchi maqolasidan boshlangan. Keyin boshqa hujjatlar quyidagi tartibda tikilgan: ayblanuvchilarni hibsga olishga asos bo‘lgan, ish joylari yoki tanish-bilishlaridan olingan ularning “xalq dushmani” ekanini tasdiqlovchi xulosalar; A. Alimuhammedov, so‘ng H. Sulaymon va boshqalarning tergov bayonnomalari, guvohlarning iqrorlari, guvohlar va boshqa ayblanuvchilar bilan yuzlashtirishlar.

O‘sha vaqtda suhbatlashganimiz arxiv mas’ul xodimining aytishicha, mazkur jinoiy ish – KGBga Lavrentiy Beriya rahbarlik qilgan yillarning mahsuli. Bu davrda ish hujjatlari qat’iy tartib bilan olib borilgan.

Jinoiy ishning 1–5-jildlarida tergov, 6–8-jildlarida esa sud materiallari berilgan. 9-jilddan M. Ismoiliyning suddan keyingi tergovi hamda qamoqxonada yozgan ikki jildli “Farg‘ona tong otguncha” romani va “Vijdon tavbasi” essesi o‘rin olgan.

Jahon tarixida qamoqxonada yozilgan asarlar ko‘p. Masalan, Imom Ahmadning fiqhiy asari, turk shoiri Nozim Hikmat she’rlari, chex yozuvchisi Yulius Fuchikning “Dor ostidagi so‘z” qissasi. Mirzakalon Ismoiliyning “Vijdon tavbasi” asari, bulardan farqli ravishda, mahbusning ko‘ngil dardlari sifatida qog‘ozga tushirilgan. To‘g‘ri, qamoqxonadagi hayotini esse shaklida yoki qahramonlar ismini o‘zgartirib, sof badiiy asar tarzida yoritgan ijodkorlar ham bor. Aleksandr Soljenitsinning “Ivan Denisovichning bir kuni” qissasi, Shuhratning “Oltin zanglamas”, Shukrulloning “Kafansiz ko‘milganlar” romanlari, Said Ahmadning “Borsa kelmas darvozasi”, “Sarob”, “Oftoboyim” hikoyalari shular jumlasidan. Ammo bu dardni qamoqxonaning o‘zida yozib, vijdoni bilan savol-javob qilganlar juda kam. M. Ismoiliyning “Vijdon tavbasi” essesi ana shunday kam sonli asarlar sirasiga kiradi. U kirill yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida binafsha rangli siyoh bilan qo‘lda bitilgan. Umumiy hajmi 265 varaq. Muallif esseni qiziga murojaat tarzida yozgan. Qo‘lyozmadan nusxa so‘raganimizda, yozuvchining avlodlaridan rozilik xati olib kelishimiz talab qilindi. Surishtirib, muallifning farzandlari dunyodan o‘tgani, rozilik xatini nevaralaridan olishimiz mumkinligini bildik. Ammo muayyan sabablarga ko‘ra, bu ish oxiriga yetkazilmadi.

“Vijdon tavbasi” asari tug‘ilgan, ammo hali o‘qilmagan. Kelajakda asar o‘z kitobxonini topadimi-yo‘qmi, buni vaqt ko‘rsatadi.

Ayon bo‘lyaptiki, arxiv hujjatlari qatiga yashiringan haqiqatlarni ochish adabiy jamoatchilik oldidagi muhim vazifalardan hisoblanadi.

Mehribon YODGOROVA,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Voqeiy hikoya

ULUG‘ MURABBIYA

Hayotbekning o‘g‘ilchalariga atab qilgan sunnat to‘yi oxirlab, mehmonlar uy-uylariga tarqala boshladi. Qiz-juvonlar yuv-tara va saranjomlash ishlari bilan band. Amma-xolalar esa to‘ydan keyinga belgilangan rejaga asosan, jiyanlari Zarofatning taqdirini hal qilishga bel bog‘lagan. To‘g‘risi, oila qurib farzand ko‘rmagan, ko‘zga yaqin jiyanlarini o‘zi jazm etgan yo‘ldan qaytarmoqchi. Ya’ni u turmushga chiqishga rozi bo‘lgan erkak ularning nazdida Zarofatga munosib emas. Hamma jam bo‘lgach, dastlab katta amma so‘z boshladi:

– Zarofat, rostdan ham qo‘shni qishloqlik Ibrohimning sovchilariga rozilik berdingmi? – mahzun qiyofadagi jiyanining yuziga sinchkov termildi Odina opa.

Davradagilarning nigohi baravariga unga qadaldi. Boshini xiyol eggancha bir nuqtaga tikilib o‘tirgan Zarofat jo‘yali javob qaytarishga taraddudlanayotgan bir pallada sabri chidamagan katta xolasi Saydiniso opa fikrini bayon qilishga shoshildi:

– Jiyanlarimizning ichida eng aqllisi, donosi o‘zingsan. O‘ylamay ish qilishing aslo mumkin emas. O‘sha Ibrohim deganlari to‘rt nafar yosh bolasi bilan beva qolganini bilgandirsan? O‘zingga munosib bo‘lgan qancha sovchilar og‘iz solib turgan bir paytda kelib-kelib, shu erkakni tanladingmi?

– Shuni ayting, opa, – uning so‘zini kuyinib davom ettirdi o‘rtancha amma Bog‘iniso opa. – Eng kichik bolasi endigina bir yoshga yetibdi. Eshitishimga qaraganda, Ibrohim deganlarining xotini yuragi zaif bo‘lishiga qaramay, erimga o‘g‘il tug‘ib beraman deb uch nafar qizdan keyin shu o‘g‘ilni tug‘ibdi-yu, jon beribdi. Bola juda nimjon emish.

– Kasal onadan kasalvand bola tug‘iladi-da. Uni o‘nglab olishning o‘zi bo‘ladimi? – “Eshitdingmi?” degandek Zarofatga qarab, yanada keskin fikr bildira ketdi Odina opa. – Xudo ko‘rsatmasin, sening qo‘lingda bolaga bir gap bo‘lsa bormi, qarindosh-urug‘laridan naq baloga qolasan. Mo‘r-malaxdek hammasi boshingga yopirilib keladi. Shu sabab ota-onang ham bu qaroringdan xursand emas. Kech bo‘lmasdan, bu ahdingdan qayt, qizim.

Odina opaning so‘zidan so‘ng amma-xolalar yanada jonlandi. Biri qo‘yib, biri sado chiqmay, jim o‘tirgan jiyaniga nasihat qila ketdi:

– Uch qizning injiqligi-chi? Ularning ko‘ngliga qarash, ulg‘aytirish oson emas.

– Oila qurishni istasang, ana, Jalol fermerga turmushga chiq! Qachondan buyon senga og‘iz soladi. Bolalari ikki nafar, voyaga yetib qolgan. Uy-joyli qilsang bo‘lgani, katta xonadonga bekalik qilib o‘tirasan.

– To‘g‘ri, bu bolalarni qiynalib katta qilganing bilan ular ulg‘aygach, sening fidoyiligingni, chekkan zahmatlaringni bilarmikan? Seni ona sifatida tan olarmikan? O‘rta



Surat sun’iy intellekt yordamida tayyorlandi

mahalladagi Zumrad kampirning holi boshingga tushmasin, deyman-da, qizim. Shu bechora ham yosh umrini yetimlarga bag‘ishlagan. Go‘dakligidan onalik qilgan o‘gay o‘g‘li choli olamdan o‘tgach, xotinining gapiga kirib, sakson yoshli kampirni uyidan chiqarib yubordi. Jiyanlarining eshigida o‘tiribdi. Yoshligidagi mehnati birovlarga, qarigandagi qarovi jigarlariga bo‘ldi.

– Yoshsan, chiroylisan, endigina o‘ttiz uch yoshga kiryapsan. Qo‘lingda hamma havas qiladigan kasbing bor. O‘zingga munosib erkak uchrasa, farzand ham ko‘rarsan. Bir etak yetim bolaga, ayniqsa kasalvand go‘dakka umringni, halovatingni sarflab, nima foyda topasan, jon qizim? Chuqurroq o‘ylab ko‘rsang-chi?

– Sizlar aytgan hamma gapni allaqachon o‘ylab bo‘lganman, – nihoyat, yetti amma-xolaning qurshovida o‘tirgan Zarofatdan sado chiqdi. – Avvalo, farzand ko‘rmasligimni do‘xtirlar allaqachon tasdiqlab bo‘lgan. Keyin o‘sha yetimlarga onalik qilishga rozi bo‘lganimning asosiy sababi o‘sha kasalvand go‘dak. Onasi shu bolani deb jon beribdi. Bola esa amma-xolalari eshigida qo‘lma-qo‘l ekan. Qizlariga ham insofli ona kerak. Nima desangiz ham, umrimni shularga bag‘ishlashga qaror qildim. Ota-onamga maqsadimni tushuntirganman. U yog‘i peshonamdan. Taqdirimga bitilganini ko‘raveraman...

* * *

Zarofatning yetim bolalarga ona bo‘lib kelganiga ikki oydan oshdi. Yangi “mehmon”dan hurkib turgan, biroq ona mehriga zor qizaloqlar – Madina, Muxlisa, Munavvara asta-sekin unga yaqinlasha boshladi. Nimjongina, ammo ko‘zlari tiyrak Ziyodulla Zarofatga tez o‘rgandi. U bola tarbiyasi uchun ishidan vaqtinchalik ta’til oldi.

Mehr – dunyoni mahv etishga qodir kuch, sabr esa baxtning ustuni, deyishadi. Zarofat ham mehri, shirinso‘zi, yumshoq fe’li bilan asta-sekin yangi oilaga singib bordi. Oylar davomida ayol taftini unutgan nursiz xonadonga yana fayz kirdi, baraka kirdi. Supurib-sidirilgan farishtali hovli, gurkirab o‘sgan gul-u rayhonlarning xushbo‘yi, xonadonga ko‘rk bergan chiroyi, mehr bilan tuzalgan dasturxon, mazali osh-ovqatlar... Barcha-barchasi ayolning sehrli qo‘llaridagi mo‘jizani ko‘z-ko‘z qilib turardi. Eng asosiysi, oila yana jamuljam bo‘lgandi. Chunki qizaloqlar va Ziyodulla onasidan ayrilgani yetmagandek, amma-xolalarining uyida otasining sog‘inchi bilan yashardi. Endi ular birga. Biroq oldinda Zarofatni o‘gay onalik mashaqqatining zahmatli sinovlari kutardi...

Tushga yaqin maktabdan qaytgan Madinaning negadir chiroyi ochilmadi. Zarofatning bergan savollariga javob qaytarishni istamas, singillarini ikki yoniga olib, nimalarnidir qayta-qayta shivirlab tushuntirardi.

Tushlik qilish uchun uyiga kelgan Ibrohim akani Zarofat har doimgidek qo‘lida o‘g‘ilchasi bilan ochiq chehra ila qarshi oldi. Bolakay yangi onasidan birzum bo‘lsa-da, ajralishni istamasdi.

– Zarofat, qara, Ziyodulla hatto menga kelishni istamayapti. Ozg‘in, nimjon o‘g‘lim sening qo‘lingda polvon bolaga aylandi. Qo‘llaringning sehri bormi, deyman-da, onasi? – Ibrohim aka o‘g‘ilchasini erkalatar ekan, tumtayib turgan qizlariga ko‘zi tushib, hushyor tortdi. – Asal qizlarimning nega kayfiyati yo‘q? Kim ularni xafa qildi? Qani, malikalarim, oldimga kelinglar-chi! Dasturxon ustida gaplashib olamiz.

Zarofat bolalariga, eriga ovqat keltirdi. Mastavaga to‘g‘ralgan ko‘katlarning hidi dimog‘ni qitiqladi. Biroq qizchalar ovqatga qo‘l uzatmasdi. Muxlisa bilan Munavvara ko‘zlarini pirpiratgancha goh ovqatga, goh opasiga qarab, yutinib qo‘yardi.

– Madina, nega ovqatni ichmayapsizlar? – qovog‘ini uygancha dasturxon popugini o‘ynab o‘tirgan katta qiziga sinchkov nazar tashladi Ibrohim aka. – Bolalar ota-onalaridan hech gapni yashirmasliklari kerak, kelishib olganmiz-a, qizim? Qani, gapir-chi?

– Maktabdan kelayotsam... bitta xola... – otasiga qiynalib, o‘pkasi to‘lib, fikrini yetkaza boshladi qizaloq, – oyim haqida yomon gap aytdi.

– Nima dedi?

– Yangi oyingdan ehtiyot bo‘l, pishirgan ovqatini yemanglar. U... u sen bilan singillaringni zaharlab o‘ldiradi. Tug‘gan oyingni ham shu o‘ldirgan, dedi.

– Nima?! – er-xotinning baravar bergan savolidan lablari qaltirab turgan qizaloq yig‘lab yubordi.

O‘g‘ilchasini ovqatlantirib o‘tirgan Zarofatning qo‘lidan beixtiyor qoshiq tushib ketdi. U yuragi uvushgan ko‘yi sakkiz yoshli qizchaga manfur so‘zlarni aytgan beshafqat ayol kim ekani haqida o‘ylardi.

– Shu gaplarga ishondingmi, qizim? – Ibrohim aka yig‘lab turgan qizchasini bag‘riga bosdi, tinchlantirdi. – Onang o‘lgani yo‘q, u yangi oying qiyofasida oilamizga kirib keldi. Senga yangi oying haqida yomon gap aytgan o‘sha ayolning o‘zi yomon. Ikkinchi marotaba bunday xotinlarning so‘ziga quloq tutma, yoniga yaqinlashma, qizim. Kelishdikmi?!

Madina “ha” degandek boshini silkitib qo‘ydi. Otasining “Qani, endi hammamiz yaxshi kayfiyat bilan ovqatlanamiz”, degan so‘zlariga chiroyi ochilgan qizaloqlar ovqatga qo‘l cho‘zdi. Bu Zarofatning hayotidagi sinovlarning boshlanishi edi.

(Davomi kelgusi sonda)

Zulfiya YUNUSOVA,
“Vatanparvar”

Davra suhbati

YOSHLAR BILAN uchrashuvlar

Bugun O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti hududiy kengashlari tomonidan joylarda “Rahbar va yoshlar” uchrashuvlari tashkil etildi.



Jumladan, Yoshlar kuni munosabati bilan o‘tkazilgan tadbir boshida tashkilotning Buxoro viloyati kengashi raisi Rustam Bayozov yig‘ilganlarga “Vatanparvar” tashkiloti tomonidan aholi, ayniqsa, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular orasida sportning texnik va amaliy turlarini ommalashtirish hamda mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasb mutaxassislarini tayyorlash bo‘yicha olib borilayotgan ishlar to‘g‘risida ma’lumotlar berdi. Suhbat asnosida R. Bayozov tashkil etilganiga 35 yil to‘layotgan mazkur tashkilotda kasb-hunar egallagan, sport bilan shug‘ullangan va harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalangan minglab yoshlar hozirda respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy, sport va mudofaa sohalarida muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotganini ta’kidladi. Tadbir so‘ngida o‘qish jarayonida faollik ko‘rsatayotgan bir guruh yoshlar “Vatanparvar” tashkilotining a’zoligiga qabul qilindi.

Xuddi shunday tadbir Namangan davlat texnika universitetida “Vatanparvar” tashkiloti viloyat kengashi raisi Ahmadjon Alaxodjayev ishtirokida o‘tkazildi. Muloqot davomida universitetning “Transport vositalari muhandisligi” ta’lim yo‘nalishi bitiruvchilari bandligini ta’minlash, ularni mutaxassisligiga mos ish o‘rinlariga yo‘naltirish hamda ish beruvchilar ehtiyojiga mos kadrlar tayyorlash masalalari ham muhokama qilindi.

“Vatanparvar” tashkiloti Toshkent shahri sportning texnik va amaliy turlari markazida o‘tkazilgan “Rahbar va yoshlar” uchrashuvida tashkilotning poytaxtdagi kengashi rahbari Sanjar Esamuratov umumta’lim maktablarining “Jasorat sinfi” o‘quvchilari va “Vatan tayanchi” otryadi a’zolari bilan ochiq muloqotda bo‘ldi. Tadbir qizg‘in savol-javoblar bilan o‘tdi. O‘quvchi-yoshlarda, ayniqsa, tashkilotning zamonaviy o‘quv avtomobillari va sport seksiyalari ko‘rgazmalari katta taassurot qoldirdi.

Jahon kubogi

MEDALLAR SHODASI BILAN

Qozog‘iston Respublikasining Baykonur shahrida raketamodel sporti bo‘yicha “Baykonur kosmodromi kubogi” ochiq xalqaro musobaqasi va “Korkit-Ata” jahon kubogi bosqichi bo‘lib o‘tdi.



Rossiya Federatsiyasi hamda Qozog‘iston, Qirg‘iziston va O‘zbekiston Respublikalari terma jamoalaridan 80 dan ortiq sportchi ishtirok etgan ushbu musobaqalarda O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti sportchilaridan iborat milliy terma jamoa mamlakatimiz sha’nini munosib himoya qildi.

Shiddatli va murosasiz kechgan bellashuvlarda turli mamlakatlardan kelgan mohir sportchilar o‘zlari tomonidan yaratilgan raketa modellari va ularning ochiq osmonda parvoz qilish imkoniyatlarini namoyon etdi.

Shaxsiy hisobda bo‘lib o‘tgan bahslarda “Vatanparvar” tashkiloti sportchilari quyidagi yuqori o‘rinlarni egalladi:

“Baykonur kosmodromi kubogi” ochiq xalqaro musobaqasida:

S-7 sinfida:

Najmiddin Zayliddinov: bronza medal *(Namangan v.).*

S-8-P sinfida:

Akmaljon Abidov: bronza medal *(Andijon v.).*

Shu sinfda o‘smirlar o‘rtasida:

Saidamir Erkinov: bronza medal *(Namangan v.).*

S-9 sinfida:

Farrux Safoyev: oltin medal *(Navoiy v.);*
Shahboz Bafoyev: kumush medal *(Buxoro v.);*
Shohjahon Zaripov: bronza medal *(Buxoro v.).*

Shu sinfda o‘smirlar o‘rtasida:

Shohjahon Zaripov: oltin medal *(Buxoro v.).*

“Korkit-Ata” jahon kubogi bosqichida:

S-4 sinfida:

Asrorbek Ahrorov: oltin medal *(Buxoro v.);*
Rashid Koshayev: kumush medal *(Qoraqalpog‘iston R.).*

Shu sinfda o‘smirlar o‘rtasida:

Asrorbek Ahrorov: oltin medal *(Buxoro v.).*

S-6 sinfida:

Saidamir Erkinov: oltin medal *(Namangan v.).*

Shu sinfda o‘smirlar o‘rtasida:

Saidamir Erkinov: oltin medal *(Namangan v.);*
Asrorbek Ahrorov: bronza medal *(Buxoro v.).*

Shu sinfda ayollar o‘rtasida:

Feruza Zayliyeva: bronza medal *(Namangan v.).*

S-7 sinfida:

Saidamir Erkinov: oltin medal *(Namangan v.);*
Najmiddin Zayliddinov: kumush medal *(Namangan v.).*

S-8-P sinfida:

Najmiddin Zayliddinov: oltin medal *(Namangan v.);*
Firuz Bahodirov: kumush medal *(Buxoro v.).*

S-9 sinfida:

Dilshod Negmurodov: oltin medal *(Buxoro v.);*
Shahboz Bafoyev: kumush medal *(Buxoro v.).*

Shu sinfda ayollar o‘rtasida:

Feruza Zayliyeva: kumush medal *(Namangan v.).*

“Vatanparvar” tashkiloti jamoasi xalqaro nufuzli musobaqalarda 9 ta oltin, 6 ta kumush va 6 ta bronza medal bilan qaytgan sportchilarini samimiy qutlaydi.

Eslatib o‘tamiz, “Vatanparvar” tashkiloti bir qator xalqaro sport tashkilotlari, jumladan, Xalqaro aeronavtika federatsiyasining to‘la huquqli a’zosi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti matbuot xizmati

Musobaqa

SPORT – SOG‘LOM RAQOBAT MAYDONI







Sport insonni nafaqat jismonan chiniqtiradi, balki unda iroda, matonat, intizom va maqsad sari intilish kabi fazilatlarni ham shakllantiradi. Ayniqsa, yosh avlodni har tomonlama yetuk, sog‘lom va barkamol etib tarbiyalashda ta’lim bilan bir qatorda jismoniy tarbiya va sportning o‘rni katta.

1-oktabr – O‘qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetida ilk bor oliy va oliy harbiy ta’lim muassasalari talaba hamda kursantlari o‘rtasida do‘stlik sport musobaqasi o‘tkazildi.

Musobaqada O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti, Jamoat xavfsizligi universiteti, Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent davlat transport universiteti, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Bojxona instituti, Ichki ishlar hamda Favqulodda vaziyatlar vazirliklari akademiyalari jamoalari minifutbol, voleybol, arqon tortish hamda 100 metr masofaga estafeta yugurish yo‘nalishlarida o‘zaro bellashdi.

Jarayonlar mutaxassislar nazorati ostida baholab borildi.

Unga ko‘ra, umumjamoa hisobda 1-o‘rinni Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti egalladi. 2-o‘rin Favqulodda vaziyatlar vazirligi akademiyasiga nasib qilgan bo‘lsa, 3-o‘ringa Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti loyiq ko‘rildi.

Musobaqa yakunida barcha yo‘nalishlar bo‘yicha 1-, 2- va 3-o‘rinlarni egallagan jamoalar qimmatbaho sovg‘alar, medallar, faxriy yorliq hamda kitoblar jamlanmasi bilan taqdirlandi.

Shuningdek, tadbir doirasida oliy ta’lim muassasalari rahbarlari uchun Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti muzeyi, mavzuviy sinflar, kutubxona hamda zamonaviy simulyatsiya xonalariga ekskursiya tashkil etilib, universitetdagi ta’lim jarayonlari va kursantlarga yaratilgan shart-sharoitlar haqida ma’lumotlar berildi.

Umuman olganda, shu kabi sport musobaqalari yoshlarning jismoniy tayyorgarligini yanada oshirish, sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish, ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirishga xizmat qildi.

Leytenant Mansur JABBOROV,
“Vatanparvar”

Emlash

Bola salomatligining ishonchli qalqoni



Har bir ota-onaning eng katta istagi farzandining sog‘lom, baxtli va osuda ulg‘ayishidir. Bolaning ilk qadami, birinchi so‘zi, maktabga borishi, orzu-havas bilan kelajakka intilishi – bularning barchasi ota-ona uchun beqiyos quvonch. Ammo bola hayotida ko‘zga ko‘rinmaydigan, ammo jiddiy xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan dushmanlar ham bor. Turli yuqumli kasalliklar ana shunday xavflar sirasidan. Ularning ayrimlari og‘ir kechishi, asorat qoldirishi, hatto bola hayotiga xavf solishi mumkin. Ana shunday paytda emlash inson salomatligini himoya qilishning eng samarali vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Vaksinatsiya organizmni muayyan yuqumli kasallikka qarshi oldindan tayyorlash jarayonidir. Vaksina tarkibida kasallik qo‘zg‘atuvchisining zararsizlantirilgan yoki organizmda kasallik keltirib chiqara olmaydigan qismlari bo‘ladi. Ular immun tizimini “tanishtirish” va himoya mexanizmlarini shakllantirishga yordam beradi. Natijada organizm keyinchalik shu infeksiyaga duch kelganda unga qarshi kurashish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Bugun ko‘plab xavfli yuqumli kasalliklarning kamayishi yoki ayrim hududlarda deyarli uchramasligi tasodif emas. Bu, avvalo, yillar davomida olib borilgan ommaviy emlash ishlarining natijasidir. Qizamiq, ko‘kyo‘tal, qoqshol, poliomiyelit, difteriya kabi kasalliklarga qarshi vaksinatsiya millionlab bolalarning hayoti va salomatligini asrashga xizmat qilib kelmoqda.

Emlashning ahamiyati faqat vaksina olgan bolaning o‘zi bilan cheklanmaydi. Jamiyatda bolalarning katta qismi emlangan bo‘lsa, infeksiyaning tarqalish imkoniyati ham pasayadi. Bu, ayniqsa, hali emlanish yoshiga yetmagan chaqaloqlar, ayrim tibbiy sabablarga ko‘ra vaksina olishi mumkin bo‘lmagan insonlar va immun tizimi zaif bo‘lgan bemorlarni himoya qilishda muhimdir. Shu ma’noda vaksinatsiya nafaqat shaxsiy, balki jamoaviy mas’uliyat ham.

Ayrim ota-onalar vaksinadan keyin bolada isitma, inyeksiya joyida og‘riq yoki shish paydo bo‘lishidan xavotirlanadi. Bunday reaksiyalar ba’zi vaksinalardan keyin kuzatilishi mumkin va aksariyat hollarda qisqa muddatli bo‘ladi. Vaksina bilan bog‘liq jiddiy nojo‘ya reaksiyalar esa juda kam uchraydi. Shu bilan birga, har bir bolaning sog‘lig‘i individual baholanishi lozim. Shuning uchun emlashdan oldin shifokor ko‘rigidan o‘tish, bolaning salomatligi va avvalgi emlashlarga bo‘lgan reaksiyasi haqida tibbiyot xodimiga ma’lumot berish muhim.

Eng muhimi, ota-ona internetdagi tasdiqlanmagan xabarlar yoki turli mish-mishlarga emas, ishonchli tibbiy manbalar va malakali mutaxassislar tavsiyasiga tayanishi kerak. Chunki vaksina haqidagi asossiz qo‘rquv ba’zan bolani kasallikning o‘ziga nisbatan ancha katta xavf ostida qoldirishi mumkin.

Bola salomatligiga e’tibor uni kasal bo‘lganidan keyin davolashdan emas, kasallikning oldini olishdan boshlanadi. Emlash ham ana shu profilaktikaning muhim qismi hisoblanadi. Farzandimizni yuqumli kasalliklardan asrash, ularning sog‘lom o‘sishi va kelajagini himoya qilish bugungi kunimizdagi eng muhim vazifalardan biridir.

Zero, sog‘lom bola sog‘lom oila, sog‘lom jamiyat va yurtimizning mustahkam kelajagidir. Vaksina esa ana shu kelajakni asrash yo‘lida inson salomatligiga berilgan ishonchli himoya vositalaridan biridir.

Sarvinoz BEKMURATOVA,
Toshkent davlat tibbiyot universiteti talabasi

Mudofaaga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkilotlarida

REKLAMA

Keyingi yillarda O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkilotining Qashqadaryo viloyati kengashi tasarrufidagi Shahrisabz shahri o‘quv sport-texnika markazi nodavlat ta’lim muassasasida yoshlarning jismonan va ma’nan yetuk bo‘lishlariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu bois ayni maqsadga xizmat qiluvchi chora-tadbirlarning izchil ijrosini ta’minlash yuzasidan turli tadbirlar tashkil etilmoqda.



HAMKORLIKDAGI TADBIRLAR SAMARASI

Bugungi kunda tashkilotda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasidagi ishlar tizimli, bosqichma-bosqich va samarali tashkil etilgan. Shu maqsadda markazda “Vatanparvar” tashkiloti – mening tanlovim!” shiori ostida “Ochiq eshiklar kuni”, “Uch avlod uchrashuvi” kabi tadbirlar muntazam o‘tkazilmoqda.

Xususan, 1-oktabr – O‘qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan tashkil etilgan tadbirda mudofaa ishlari, maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari, IIB, JXX, YHX bo‘linmasi, Milliy gvardiya, Yoshlar ishlari agentligi shahar bo‘limlari hamda umumta’lim maktablari “Vatan tayanchi” otryadlari va tashkilot a’zolari ishtirok etdi.

– Muhimi, tashkilotimiz tomonidan o‘tkazilayotgan bunday tadbirlarga boy hayotiy tajribaga ega faxriylar, ilm-fan, madaniyat va sport sohasida, shuningdek turli musobaqa hamda tanlovlarda g‘olib bo‘lgan yosh avlod vakillari ham jalb etilmoqda, – deydi markaz direktori Mansurbek Rustamov. – Joriy yilning o‘tgan oylari mobaynida harbiy-vatanparvarlik yo‘nalishi bo‘yicha 35 ta, 18 ta ma’naviy-ma’rifiy hamda 10 tadan ortiq ommaviy sport tadbirlari o‘tkazildi. Shuningdek, 4-, 10-, 14-, 23-umumta’lim maktablari o‘quvchilari hamda hududdagi maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari o‘rtasida “Quvnoq startlar”, “Kim epchil-u, kim chaqqon?”, “Yo‘l harakati qoidalarining yosh bilimdoni”, “Piyoda – umring bo‘lsin ziyoda!” kabi mavzularda viktorinalar hamda targ‘ibot tadbirlari tashkil etilayotgani ham shunday ishlarimiz sirasidandir.



Shu kunlarda markazda sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish borasida ham muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Ayni paytda tashkilotda “Havo miltig‘idan o‘q otish”, “Yozgi biatlon” kabi seksiya va to‘garaklar faoliyat ko‘rsatmoqda. Bu to‘garaklarda o‘ttiz nafardan ziyod iqtidorli yosh muntazam shug‘ullanib kelmoqda.



O‘quv sport-texnika markazi tomonidan bir necha bor shahar, viloyat musobaqalari o‘tkazildi. Barcha musobaqalarda besh yuz nafardan ortiq sportchi qatnashdi. Albatta, harbiy-vatanparvarlik va sport tadbirlari shahar hokimligi, mudofaa ishlari bo‘limi, Yoshlar ishlari agentligi hamda maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari bilan hamkorlikda o‘tkazilmoqda.

Ayni paytda markazda “A”, “B”, “BC”, “BE”, “CE” hamda “D” toifali haydovchilar tayyorlash va qayta tayyorlash ishlari muvaffaqiyat bilan bajarib kelinmoqda. Bunda Zarifjon Eshov, Bekzod Ro‘ziyev, Abror Muhammadiyev, Akmal Abdullayev kabi tajribali o‘qituvchi va amaliy boshqarishni o‘rgatuvchi-ustalarning xizmati katta bo‘lmoqda.

Akbar ALLAMURODOV



Osiyo o'yinlari



Yaponiyaning Aichi–Nagoya shahrida 19-sentabrdan 4-oktabrga qadar davom etadigan XX yozgi Osiyo o‘yinlari qizg‘in pallaga kirdi. Qit’aning 37 davlati vakillari sportning 59 yo‘nalishida g‘oliblik uchun bahs olib borayotgan ushbu ulkan sport maydonida O‘zbekiston terma jamoasi a’zolari ham munosib ishtirok etmoqda. Osiyo o‘yinlari – har to‘rt yilda bir bor o‘tkaziladigan oddiy musobaqa emas. Bu qit’aning eng kuchli sportchilari jam bo‘ladigan, sport mahorati bilan bir qatorda iroda, ruhiy barqarorlik va katta tayyorgarlik sinovdan o‘tadigan nufuzli maydon. Unda har bir medal uchun raqobat oson kechmaydi.

G‘ALABA SARI QADAMLAR:

Ayniqsa, sportning bir qator turlarida Osiyo sportchilari jahon miqyosida ham yuqori natijalar qayd etayotganini hisobga olsak, bu musobaqada g‘oliblikka erishish sportchidan yillar davomidagi mashaqqatli mehnatni talab qiladi. Shunday katta sport bayramida O‘zbekiston terma jamoasi safida sportning 17 yo‘nalishi bo‘yicha 66 nafar Mudofaa vazirligi vakili ishtirok etayotgani e’tiborga molik.

Musobaqalar hali davom etmoqda. Demak, medallar hisobi yana ortishi, sportchilarimiz yangi zafarlar bilan yurtimiz xazinasini boyitishi mumkin. Ammo bugungi raqamlarning o‘zi ham bir haqiqatni ko‘rsatib turibdi: O‘zbekiston sportchilari qit‘aning eng kuchli vakillari bilan tengma-teng bellashish salohiyatiga ega. Bu natijalarda Mudofaa vazirligi harbiy xizmatchilari va Qurolli Kuchlar xizmatchilarining ham munosib hissasi bor. Ularning ayrimlari bilan suhbatlashar ekansiz, medal ortida qanchadan qancha mashaqqat, izlanish va ruhiy sinovlar turganini his etasiz.

XANCHJOUDAGI BRONZA NAGOYADAGI OLTINGA OLIB BORDI

Qurolli Kuchlar xizmatchisi Shahzod Nurmatov uchun Aichi–Nagoyadagi Osiyo o‘yinlari alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. U sherigi Sobirjon Safaraliyev bilan ikki kishilik qayiqda bellashib, oltin medalni qo‘lga kiritdi. Bu g‘alabaning qadrini anglash uchun 2023-yildagi Xanchjou Osiyo o‘yinlariga nazar tashlash kifoya. O‘shanda ham Shahzod Nurmatov va Sobirjon Safaraliyev birga ishtirok etib, uchinchi o‘rinni egallagan edi.

20th Asian Games
Aichi-Nagoya 2026

Bronza medal ular uchun muhim natija bo‘lsa-da, sportchilar bu bilan cheklanib qolmadi. Aksincha, o‘sha natija ular uchun yangi maqsadni belgilab berdi. Oltin medal...

O‘zlariga va’da berdi. Keyin esa ana shu maqsad yo‘lida yanada qattiq mehnat qildi. Nagoyada esa orzu natijaga aylandi.

– Biz mashg‘ulotlarda qiyinchilikni emas, faqat g‘alabani o‘yladik, – deydi Shahzod Nurmatov. – Bu bir qarashda oddiy gapdek tuyulishi mumkin. Ammo professional sportda g‘alaba, avvalo, insonning ongida tug‘iladi.

Sportchi raqibdan oldin o‘zining qo‘rquvini yengadi. Charchoqni yengadi. Shubhani yengadi. “Qila olamanmi?” degan savol o‘rniga “Qilaman!” degan ishonchni qo‘yadi. Shahzod Nurmatov va uning sherigi ham shunday yo‘lni bosib o‘tdi. Ularning Osiyo o‘yinlariga tayyorgarligi ham oson kechmagan. Sportchilar musobaqadan oldin jahon chempionatida ishtirok etib, unda oltin medalni qo‘lga kiritgan. Shundan so‘ng Yaponiyaga yo‘l olgan. Yaponiyaning Ina shahrida 20 kunlik o‘quv-mashg‘ulot yig‘ini o‘tkazildi. Bu davrda sportchilar nafaqat jismoniy jihatdan, balki iqlim va musobaqa sharoitiga moslashish, ruhiy tayyorgarlik va texnik mahoratni yanada takomillashtirish ustida ishladi. Biroq musobaqa arafasida tabiatning o‘zi ham sinov yuzaga keltirdi. 19-sentabrga rejalashtirilgan bahs noqulay ob-havo tufayli 23-sentabrga ko‘chirildi. Bunday vaziyatda sportchining rejasi o‘zgaradi, ruhiy bosim ortadi. Ammo katta sportchi uchun sharoit o‘zgarishi maqsad o‘zgarishi degani emas.

Shahzod Nurmatov va uning sherigi ham o‘z tayyorgarligini saqlab qoldi. Natija – Osiyo o‘yinlarining oltin medali. Bu yil ular uchun chindan ham omadli keldi. Jahon kubogi va jahon chempionatidagi oltin medallar, Litva ochiq chempionatidagi g‘alaba va endi Osiyo o‘yinlaridagi chempionlik – bir mavsumga sig‘gan katta natijalar. Sportchi bu muvaffaqiyatlarda chet elda o‘tkazilgan o‘quv-mashg‘ulot yig‘inlarining ham ahamiyati katta bo‘lganini ta’kidlaydi. Ularning e’tirofi esa bir fikrga borib taqaladi: sportda yuqori natija uchun iste’dodning o‘zi kamlik qiladi. Sportchiga munosib sharoit, tizimli tayyorgarlik, murabbiy va mutaxassislar mehnati ham zarur.

MATONAT, MEHNAT VA MEDALLAR



TAYFUNGA QARAMAY DAVOM ETGAN MASHG‘ULOT

Qurolli Kuchlar xizmatchisi Shahboz Xolmurzayevning musobaqa oldidan kechirganlari ham katta sportning yana bir qirrasini namoyon etadi. Ular Yaponiyaning Keyfu viloyatidagi Ina shahrida mashg‘ulotlarni o‘tkazgan. Musobaqa boshlanishiga to‘rt kun qolganda Nagoyaga yetib kelgan. Biroq manzilga borgach, musobaqa o‘tkaziladigan kanal tayyor emasligi ma’lum bo‘ldi. Sababi – bir necha kun avval hududdan o‘tgan tayfun. Kanalni tayyorlash ishlari tugallanmagan bo‘lsa-da, sportchilar vaqtni boy bermaslikka qaror qildi. Qayiqlarini olib, yaqin atrofdagi kanalda mashg‘ulotlarni davom ettirdi. Musobaqadan bir kun oldin distansiya ham to‘g‘rilandi. Musobaqa esa belgilangan muddatdan ikki kunga kechiktirildi. Bunday holatlar sportchidan sabr bilan birga tez moslashish qobiliyatini ham talab etadi. Shahboz Xolmurzayev va uning jamoadoshlari bu sinovlarga qaramay, bahslarga tayyor holda chiqdi. Natijada bir kishilik bahslarda ikkinchi o‘rin, to‘rt kishilik bahslarda esa uchinchi o‘rin qo‘lga kiritildi. Bu natija yana bir bor shuni ko‘rsatdiki, sportda har doim ham hamma narsa rejadagidek kechavermaydi. Ob-havo o‘zgaradi. Musobaqa vaqti o‘zgaradi. Mashg‘ulot sharoiti o‘zgaradi. Ammo g‘alabaga bo‘lgan intilish o‘zgarmasligi kerak.

MEDAL – RAQAM EMAS

Musobaqada qo‘lga kiritilayotgan har bir medalning o‘ziga xos tarixi bor. Birida yillar davomidagi mehnat mujassam. Birida mag‘lubiyatdan keyingi tiklanish. Yana birida og‘ir mashg‘ulotlar. Boshqasida esa ota-ona duosi, murabbiy ishonchi va jamoaning qo‘llovi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, medallarni faqat raqam sifatida ko‘rish kamlik qiladi. Medal – inson mehnatining moddiy ifodasi. Uning rangidan ko‘ra, unga qanday yo‘l bilan erishilgani ko‘proq narsani anglatishi mumkin.



KUMUSH MEDAL ORTIDAGI KATTA G‘ALABA

Kichik serjant Zaynab Daybekova uchun Osiyo o‘yinlaridagi kumush medal ham alohida ahamiyat kasb etadi. Qilichbozlikda Osiyo maktabi dunyodagi eng kuchli maktablardan biri hisoblanadi. Shu bois bu yo‘nalishda Osiyo o‘yinlarida medal uchun kurashishning o‘zi katta sinov. Zaynab Daybekova musobaqaga tayyorgarlik jarayonida ruhiy jihatdan oson davrni boshdan kechirmagan. Mashg‘ulotlarda o‘zidan ko‘ngli to‘lmagan paytlar ham bo‘lgan. Katta musobaqa oldidan bunday holat sportchi uchun jiddiy sinov. Chunki insonning jismoniy holati bilan ruhiy holati bir-biriga chambarchas bog‘liq. Biroq Zaynab bu tushkunlikni yengib o‘tdi. Bunda uning murabbiylari muhim rol o‘ynadi. Ayniqsa, yarim final va final bahslarida Shahnoza Shavkatovna va Otabek Muhammadaliyevichning sportchini qo‘llab-quvvatlashi unga katta motivatsiya berdi. Zaynab ularning ishonchini his qilib, o‘z kuchiga yanada ishonganini ta’kidlaydi. Biroq uning yana bir kuch manbai bor edi. Bu – ona duosi. O‘zbekiston va Yaponiya o‘rtasidagi vaqt farqiga qaramay, onasi farzandining g‘alabasini tilab, duo qilib o‘tirdi. Sportchi bu duolarni alohida minnatdorlik bilan tilga oladi. Onasining bedor tunlari, farzandi uchun qilgan duolari uning xotirasida kumush medal bilan birga muhrlanib qoldi. Shuning uchun ham Zaynab Daybekova uchun bu kumush medal oddiy kumush emas. Uning uchun bu medal oltinga teng. Chunki uning ortida nafaqat raqiblar bilan kurash, balki insonning o‘z-o‘zi bilan kurashi ham bor.

G‘ALABA –YANGI MARRALAR BOSHLANISHI

Shahzod Nurmatovning Xanchjoudagi bronzadan Nagoyadagi oltingacha bosib o‘tgan yo‘li bir haqiqatni ko‘rsatadi: kechagi natija ertangi maqsadning boshlanishi bo‘lishi mumkin. Shahboz Xolmurzayevning tayfundan keyin ham mashg‘ulotni davom ettirgani – sharoit qanchalik murakkab bo‘lmasin, maqsadga sodiq qolish mumkinligini isbotlaydi. Zaynab Daybekovaning kumush medali esa inson ba’zan eng katta raqibni o‘z qalbida yengishini ko‘rsatdi. Ularning uchalasida ham bitta umumiy jihat bor: maqsadga ishonch. Katta sportda aynan shu ishonch sportchini mashg‘ulot maydonidan musobaqa maydoniga, musobaqadan shohsupaga olib chiqadi. Bugun Aichi–Nagoyada 37 davlat sportchilari 59 yo‘nalishda bellashayotgan bir paytda O‘zbekiston vakillari ham o‘z imkoniyatlarini namoyon etmoqda. Oldinda yangi bahslar, yangi imkoniyatlar va yangi natijalar bor. Zero sportda g‘alaba faqat shohsupada qo‘lga kiritilmaydi. U tonggi mashg‘ulotda tug‘iladi. Qiyinchilikka qaramay davom etilgan mashqda toblanadi. Murabbiyning ishonchi bilan mustahkamlanadi. Ota-onaning duosi bilan quvvatlanadi. Va nihoyat, musobaqa maydonida Vatan bayrog‘i ostida o‘zining haqiqiy qiymatini namoyon etadi. Aichi–Nagoyadagi bugungi g‘alabalar ana shu ulkan mehnatning mevasidir. Ertangi medallar esa hali yozilishi kerak bo‘lgan yangi zafarlar solnomasidir.

Sherzod SHARIPOV,
“Vatanparvar”

Raqamli niqob

Sun’iy idrok yozgan matnni qanday farqlash mumkin?



Surat sun’iy intellekt yordamida tayyorlandi

Sun’iy idrok yozgan matnlar ko‘paygani sari ularni inson yozgan matnlardan ajratishning ahamiyati ham oshib boryapti. SI taqdim etayotgan matnlarda bir qancha kamchiliklar bor. To‘g‘ri, borgan sari matn sifati yaxshilanyapti, biroq hozircha neyrotarmoq matnlarini qoniqarli deb baholab bo‘lmaydi. Ayniqsa, o‘zbekchada.

SI yaxshi yordamchi, uni dushman deb bilmaslik kerak. Biroq tabiiy idrokning o‘rnini unga to‘liq bo‘shatib berish ham aqldan emas.

Xo‘sh, SI yozgan matnlarni qanday farqlash mumkin?

Birinchisi – takrorlar va qolip ifodalar. Gaplar bir xil tuzilgan bo‘ladi, matnda biroq, xulosa qilib aytganda, ma’lumotlarga ko‘ra, natijada kabi iboralar, nafaqat..., balki qolipidagi jumlalar haddan tashqari ko‘p ishlatiladi. Uslub zerikarli, ohang bir maromda ketaveradi.

Ikkinchisi – mazmundagi o‘xshashliklar. Sun’iy idrok o‘zi fikr o‘ylab topa olmaydi. Faqat o‘rgangan ma’lumotlaridan foydalanadi. Shu bois ba’zan matnlar bir-biriga o‘xshash chiqib qoladi. Lekin u sizni yangi g‘oyalarga yo‘llashi mumkin, ma’lum bir mavzuda e’tibordan chetda qolgan jihatlarni topib berishda ham juda asqatadi.

Uchinchisi – fikrlar o‘rtasidagi uzilish. Ba’zan gaplar mavzu bo‘yicha ketayotgandek tuyuladi, lekin to‘satdan boshqa yoqqa burilib ketadi. Bunga sabab sun’iy idrok chuqur kontekstni, mazmundagi yaxlitlikni tushuna olmay qolishida.

Yuqoridagi belgilar SI yozgan matnlarni ajratishga yordam beradi. Bu ko‘nikma ayniqsa jurnalistika, ta’lim yoki ilm-fan sohasi vakillari uchun juda kerakli.

“Bu g‘irt SI-ku!”: Yoshlar nega sun’iy intellektni haqorat so‘ziga aylantirdi?

Britaniya va AQSh maktab o‘quvchilari orasida “sun’iy intellekt” so‘zlari o‘ziga xos haqorat ma’nosida ommalashyapti. Yoshlar biror narsaning soxta yoki samimiyatsiz ekanini bildirish uchun “Bu g‘irt SI-ku!” iborasini faol qo‘llayapti.

O‘smirlar nazarida SI mahsulotlari sirtidan silliq ko‘rinsada, tagi bo‘sh va qalbaki. Shu bois ular kundalik hayotdagi hissiz munosabatlar va yasama xatti-harakatlarni sun’iy idrokka qiyoslay boshladi.

Yozuvchi Kori Doktorou 2024-yildagi maqolasida buni tasdiqlaydi: uning qizi va tengdoshlari bu iborani “arzon va sifatsiz narsa” ma’nosida ishlatadi.

Orif TOLIB,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi

Qutlov

Qaysi sohada bo‘lmasin, Ustoz maqomidagi hazrati insonlarga bag‘ishlanadi.

Yurtim kelajagin bunyodkorlari

Bugun shodiyona zavqidan to‘lib,
Tabrikka chorlaydi ko‘ngil torlari.
Yashang doim baxtli, sog‘-omon bo‘lib,
Yurtim kelajagin bunyodkorlari.

Dunyoni tebratar siz bergan saboq,
Ey, siz bahosi yo‘q kasb-u korlari.
Siz borki, avlodlar iqboli porloq,
Yurtim kelajagin bunyodkorlari.

O‘znimas shogirdin yutug‘i uchun,
Qalbida jo‘sh urgan iftixorlari.
Bor bo‘ling shogirdlar toleyi uchun,
Yurtim kelajagin bunyodkorlari.

Har inson kamoli siz bilan bog‘liq,
Kasbingiz mushkul va ulug‘ nechog‘liq.
Xalqiga fidodir jon, urfonlari,
Yurtim kelajagin bunyodkorlari.

Bashar ravnaqi chun yo‘g‘-u borlari,
El-u yurt taqdiri g‘urur, orlari,
Buyuk siymolarning ijodkorlari,
Yurtim kelajagin bunyodkorlari!

Sizga shoirlarning zo‘r ash’orlari,
Sizga barcha ezgu dil izhorlari.
Ulug‘ ayyomingiz muborak bo‘lsin,
Yurtim kelajagin bunyodkorlari!

Botir SOBIROV,
Harbiy prokuratura xodimi

MUASSIS
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI

VATANPARVAR

Tahririyat kengashi:
general-mayor Hamdam Qarshiyev
polkovnik Alisher Ergashev
podpolkovnik Ulug‘bek Fattaxov

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.
Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – “Vatanparvar” birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir vazifasini vaqtincha bajaruvchi: kapitan Bobur Elmurodov

ISSN 2010-5541

Gazeta O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Telefonlar:
kotibiyat: 55 511-25-90
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo‘lim: 55 511-25-72

Navbatchi: kapitan Dilshod Ro‘ziqulov
Sahifalovchi: Tohirjon Turg‘unboyev
Musahhih: Zebo Sariyeva

Buyurtma: V-6203
Hajmi: 6 bosma taboq
Bichimi: A3
Adadi: 31 691 nusxa
Bosishga topshirish vaqti: 14:00
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “O‘zbekiston” NMIU mas’ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.
Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan.

Nashr ko‘rsatkichi: 114.
Bahosi: kelishilgan narxda.

“O‘zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko‘chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani Sag‘bon ko‘chasi, 382-uy.

@Vatanparvargazetasi_bot
“Vatanparvar” birlashgan tahririyati bilan bog‘lanish uchun telegram bot

BIZ HAQIMIZDA

www.mudofaa.uz
t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi
www.mv-vatanparvar.uz
vatanparvar-bt@umail.uz
mudofaavazirligi
mudofaavazirligi
www.youtube.com/c/UzArmiya